

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI KENGASHINING
2021/2022 O'QUV YILI 7- YIG'ILISHI
BAYONI

2022-yil 10 mart
Katta yig'inlar zali

Buxoro shahri
soat 14:00

Raislik qildi:

O.X.Xamidov - kengash raisi, Buxoro davlat universiteti rektori, p.f.d., prof.

Ishtirok etganlar:

N.G.Dilova - kengash kotibi, p.f.d.,(PhD) dots.
BuxDU kengashi a'zolari umumiy soni:71 nafar
Qatnashdi: 65 nafar kengash a'zosi va taklif qilinganlar (ro'yxat asosida)

Buxoro davlat universiteti kengashining 2021-2022 o'quv yilining 7-yig'ilishini kengash raisi, universitet rektori, i.f.d., professor O.X. Xamidov ochib berdi.

Oliy Attestatsiya komissiyasi qarori bilan tasdiqlangan ilmiy unvon va ilmiy daraja olgan professor-o'qituvchilar hamda turli tanlov g'oliblari taqdirlandi.

Kengash raisi bugungi 7 - kengash yig'ilishida 71 nafar kengash a'zosidan 65 nafari ishtirok etayotganligini, 6 nafar kengash a'zosi sababli bugungi kengashda ishtirok etmayotganligini ma'lum qilib, yig'ilishni ochish to'g'risidagi masalani kengash a'zolari hukmiga havola etdi. Kengash a'zolari yig'ilishni ochiq deb qabul qilishni bir ovozdan ma'qullashdi.

Shundan so'ng, kengash kun tartibi o'qib eshittirildi.

RAIS: hurmatli Kengash a'zolari, bugungi yig'ilish kun tartibi sizga ma'lum.

KUN TARTIBI:

I. Universitet jamoasi bilan amalga oshiriladigan masalalar yo'nalishi bo'yicha:

1.1. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi hamda O'zbekiston Teleradiokompaniyasi ishchi guruhi tomonidan o'rganilgan ishlar tahlili va 2022 yildagi ustivor vazifalar to'g'risida

1.2. Buxoro davlat universiteti Kengashi to'g'risidagi NIZOMni tasdiqlash to'g'risida.

(Rektor O.X. Xamidov va prorektorlar, yurist konsult)

II. O'quv jarayoni yo'nalishi bo'yicha:

2. Buxoro davlat universitetining Pedagogika institutida o'quv jarayonining tashkil etilganligi va 2022/2022 o'quv yilining kuzgi semestri yakunlari to'g'risida

(BuxDuning pedagogika instituti direktori M.I. Daminov)

III Ilmiy ishlar va innovatsiyalar yo'nalishlari bo'yicha:

3.1. Buxoro davlat universiteti kafedralar huzuridagi ilmiy-tadqiqot markazlari faoliyati tashkil etish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar hamda belgilangan ustuvor vazifalar to'g'risida

3.2. Universiteti innovatsion kengashi to'g'risida Nizomni hamda innovatsion kengash a'zolari tarkibini tasdiqlash to'g'risida

(Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor O.S.Oahhorov axboroti)

IV. Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar yo'nalishi bo'yicha:

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 19-yanvardagi “Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-92-son qarori asosida talabalarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazish to‘g‘risida

(Yoshlar masalalari va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha prorektor

A.M. Kadirov axboroti)

V. Xalqaro hamkorlik bo‘yicha:

5. Universitet ta‘lim, ilmiy, tashkiliy-boshqaruv va boshqa faoliyatlariga xorijiy mutaxassis va vatandoshlarni jalb qilish bo‘yicha.

(Xalqaro hamkorlik bo‘yicha prorektor A.T.Jo‘rayev axboroti)

VI. Moliya-iqtisod ishlar yo‘nalishlari bo‘yicha:

6.1. Talabalarining qishki ta‘til davri hamda masofaviy ta‘lim shakli davri uchun talabalar turar joylari to‘lovlarini tartibga solish to‘g‘risida.

6.2. Buxoro davlat universitetida tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanish uchun o‘z hisobidan yengil konstruksiya asosida qurilgan binolarning tegishli yer maydonlarini ijaraga berish to‘g‘risida

(Moliya-iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor O‘.U. Rashidov)

VII. TSNQB bo‘yicha:

7. Buxoro davlat universitetining 2021-yildagi faoliyati bo‘yicha reytingini baholashga oid ma‘lumotlar to‘g‘risida

(TSNQB boshlig‘i - M.Y.Ergashov)

VIII. Tanlovlar.

8. Buxoro davlat universiteti kafedra mudiri, dotsenti, katta o‘qituvchi va o‘qituvchi lavozimlariga navbatdagi tanlovlar to‘g‘risida

(Kengash kotibi N.Dilova)

IX. Turli masalalar.

9.1. Universitetning pedagog xodimlari tomonidan tayyorlangan darslik va o‘quv qo‘llanmalarni vazirlik grifini olishga tavsiya berish to‘g‘risida.

9.2. Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining 2020-yil 10-avgustdagi 412-son buyrug‘i asosida magistraturaning oxirgi bosqichi talabalariga bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlarining xususiyatlaridan kelib chiqib, universitet kengashi qarori asosida bakalavriat talabalariga dars berish uchun 0,5 stavkagacha pedagogik faoliyat olib borishga ruxsat berish to‘g‘risida

9.3. Buxoro viloyati maktablarida ta‘lim sifati va o‘qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirish hamda Buxoro davlat unversiteti bilan maktablar o‘rtasidagi hamkorlikni kengaytirishga qaratilgan “BUXORO TAJRIBASI”ni joriy etish bo‘yicha “YO‘L XARITASI” ni tasdiqlash to‘g‘risida

9.4. Fanlardan akademik qarzdorligi 4 ta va undan ko‘p bo‘lgan talabalarga qayta topshirishga ruxsat berish to‘g‘risida

(O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor v.b. R.G‘. Jumayev axboroti)

9.5. Xorijiy fuqarolar uchun shartnoma-to‘lov miqdorlarini belgilash to‘g‘risida

(Xalqaro hamkorlik bo‘yicha prorektor A.T. Jo‘rayev axboroti)

9.6. Talabgorlarni mustaqil izlanuvchilikka qabul qilish, ularning ilmiy rahbarlari va dissertatsiya mavzularini tasdiqlash tugrisida

9.7. “Fakultetlararo jismoniy madaniyat va sport” kafedrasida huzuridagi “Ommaviy sport sog‘lomlashtirish” ilmiy-tadqiqot markazida ko‘rsatiladigan xizmat narxlarini tasdiqlash to‘g‘risida.

(Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor O.S.Qahhorov axboroti)

9.8. Sirtqi ta‘lim shakli filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili) ta‘lim yo‘nalishi 9-1 UZB S-19 guruhi talabasi Jaxonova Xojibibi Yoqubjon qizining 2022 yil 7 yanvarda vafot etganligi sababli

uning o'tgan o'quv yili uchun (1242 399,00) miqdoridagi shartnoma pulini qarzdorlar hisobidan chiqarish to'g'risida

(Sirtqi (maxsus sirtqi) bo'lim boshlig'i T.R. Sobirov axboroti)

9.9. Buxoro davlat universiteti huzuridagi "Ma'rifat chashmasi" o'quv markazi NIZOMIning tasdiqlash to'g'risida

9.10. Buxoro davlat universitetida ta'limning sirtqi shakli bo'yicha bir nafar o'qituvchi hisobiga to'g'ri keladigan talabalar soni nisbatini belgilash to'g'risida

9.11. Buxoro davlat universitetida ayrim xodimlarni ish vaqtdan tashqari vaqtda ishga jalb qilish bilan bog'liq munosabatlarni qonunchilik asosida tartibga solish to'g'risida

(O'quv ishlari bo'yicha prorektor v.b. R.G'. Jumayev axboroti)

KENGASH REGLAMAYENTI

Axborotlar uchun	10 daqiqagacha
So'zga chiquvchilar uchun.....	3 daqiqagacha
Ma'lumotlar uchun	3 daqiqagacha

Ushbu kun tartibi va reglamenti xususida takliflaringiz bormi?

Ovozlar: tasdiqlansin.

RAIS: kun tartibini tasdiqlash to'g'risida taklif bo'ldi. Uni ovozga qo'yaman.

Tarafdorlar 65 nafar

Qarshilar – yo'q.

Betaraflar – yo'q.

Demak, kun tartibi tasdiqlandi. Kun tartibidagi maslalar muhokamasiga o'tamiz.

KUN TARTIBI BO‘YICHA MASALALAR MUHOKAMASIGA O‘TILDI

I. Universitet jamoasi bilan amalga oshiriladigan masalalar yo‘nalishi bo‘yicha:

1.1. Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi, Ta‘lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi hamda O‘zbekiston Teleradiokompaniyasi ishchi guruhi tomonidan o‘rganilgan ishlar tahlili va 2022 yildagi ustivor vazifalar to‘g‘risida

ESHITILDI: O.X. Xamidov (universitet rektori, kengash raisi) Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi, Ta‘lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi hamda O‘zbekiston Teleradiokompaniyasi ishchi guruhi tomonidan o‘rganilgan ishlar tahlili va 2022 yildagi ustivor vazifalar to‘g‘risida сўзга чиқиб қўйидаги ахборотни берди.

Ta‘lim inspeksiyasi va Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi tomonidan joriy yilning 28-fevral - 2-mart kunlari Buxoro viloyatidagi muassasalarda ta‘lim sifatining holati va ularda yaratilgan sharoitlar o‘rganildi.

O‘rganish davomida universitetda ta‘lim oluvchilarga sifatli ta‘lim olish uchun yaratilgan sharoitlar va ta‘lim sifatini yaxshilash bo‘yicha olib borilayotgan ishlar samaradorligi tahlil qilindi. (ushbu ma‘lumot ilova qilinadi)

Ma‘lumotlar asosida quyidagi tavsiyalar berildi:

Birinchidan, universitetning aniq missiyasini belgilab olish, mutaxassislik chiqaruvchi fakultet dekanlari va kafedra mudirlari mehnat bozori talablari va ish beruvchilari haqida yetarli ma‘lumotga ega bo‘lish, bitiruvchilarni ish bilan ta‘minlash va ish beruvchilar bilan doimiy aloqa qilish;

Xususan, BuxDUning asosiy missiyasi ishlab chiqarish, sanoat va ilm-fan uchun kadrlar tayyorlash ekanligi;

O‘quv rejalarga faqat mutaxassislik uchun zarur fanlarni kiritish, qo‘shimcha mutaxassislikka ega bo‘lmoqchi talabalarga esa kerakli fanlarni tanlash imkonini berish;

Barcha professor-o‘qituvchilar va talabalarning kredit-modul tizimi mohiyatini tushunib yetishlarini ta‘minlash;

Talabalar va professor-o‘qituvchilar orasida maqsadli so‘rovnomalar o‘tkazishni doimiy tashkil etish va natijali tahlillarni amalga oshirish;

Ikkinchidan, talabalarda nazariy bilim bilan uyg‘un ravishda amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish ishlarini talab darajasida olib borish;

moddiy-texnik baza hamda ta‘lim dasturlari qayta ko‘rib chiqib takomillashtirish;

xorijiy universitetlar bilan mustahkam aloqalar o‘rnatish ishlarini tizimli yo‘lga qo‘yish va talabalarga bilim berishda zamonaviy xorijiy adabiyotlardan foydalanish;

Turizm ta‘lim yo‘nalishi o‘quv rejasida sohada raqobatbardosh kadrlar tayyorlash uchun zarur bo‘lgan xorijiy til, notiqlik, tarix va madaniyat bo‘yicha ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan fanlarga alohida e‘tibor qaratish, o‘quv jarayonlariga sohadan amaliyotchi mutaxassislar jalb etish;

turizm sohasidagi boshqa OTMLar bilan hamkorlik aloqalarini o‘rnatish, birgalikda mashg‘ulotlarni tashkil etish, talabalar o‘rtasida hamkorlik aloqalarini o‘rnatish va qo‘shma loyihalar va sayyohlik turlarini amalga oshirishga erishish;

Uchinchidan, talabalarda amaliy ko‘nimalarni shakllantirish va ilmiy-tadqiqot faoliyati bilan shug‘ullanish uchun kerak bo‘lgan moddiy-texnik bazani to‘liq shakllantirishga erishish;

To‘garaklar faoliyatini talab darajasida yo‘lga qo‘yish va ish beruvchilar bilan uchrashuvlarni maqsadli belgilash;

Xususan, xorijiy til va notiqlik bo‘yicha turli klublarni tashkil etish, sohada muvaffaqiyatga erishgan soha mutaxassislari va tadbirkorlar bilan uchrashuvlarni tashkil etish;

Beshinchidan, talabalarni professor-o‘qituvchilarni baholash jarayoniga jalb etish, reyting indikatoriga sifatli dars o‘tish ko‘rsatkichini kiritish;

Oltinchidan, sirtqi ta‘lim faoliyatini tashkil etish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar samaradorligi va ta‘lim sifatini oshirish choralari ko‘rish;

Yettinchidan, ijtimoiy ma‘naviy muhitni yaxshilash va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar samaradorligiga erishish;

Kun tartibidagi masala yuzasidan **Kengash qaror qiladi:**

1. Universitet rektori, Kengash raisi O.X. Xamidovning “Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi, Ta‘lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi hamda O‘zbekiston Teleradiokompaniyasi ishchi guruhi tomonidan o‘rganilgan ishlar tahlili va 2022 yildagi ustivor vazifalar to‘g‘risida” gi axboroti ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

Barcha yo‘nalishlar bo‘yicha ma‘sullarga:

2. Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi, Ta‘lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi hamda O‘zbekiston Teleradiokompaniyasi ishchi guruhi tomonidan aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish va belgilangan ustivor vazifalar ijrosini ta‘minlash bo‘yicha tegishli chora tadbir ishlab chiqilsin va takliflar rahbariyatga taqdim etilsin.

3. Ushbu qaror ijrosini o‘z zimmasida qoldiraman.

1.2. Buxoro davlat universiteti Kengashi to‘g‘risidagi NIZOMni tasdiqlash to‘g‘risida.

ESHITILDI: G.Najmiddinov (yurist konsult) Buxoro davlat universiteti Kengashi to‘g‘risidagi NIZOM haqida Kengash a‘zolariga ma‘lumot berdi. Nizom quyidagi bo‘limlardan iborat:

- I. UMUMIY QOIDALAR,**
- II. KENGASH VAKOLATLARI VA ASOSIY VAZIFALARI**
- III. KENGASH TARKIBI**
- IV. KENGASH ISHINI REJALASHTIRISH VA TASHKIL ETISH**
- V. KENGASH YIG‘ILISHINI O‘TKAZISH VA QAROR QABUL QILISH**
- VI. KENGASH QARORLARI BAJARILISHINI NAZORAT QILISH**
- VII. KENGASH HUJJATLARI VA ISHLARNI YURITISH**

III KENGASH TARKIBI bo‘limidagi ayrim bandlarga qo‘shimcha kiritildi. Ya‘ni, Kengash a‘zosi:

- Kengash yig‘ilishidan kamida 10 daqiqa oldin hozir bo‘lishi;
- kun tartibidagi masalalar yuzasidan fikr bildirishga tayyor bo‘lishi;
- Kengash qarorlarini joylarda (fakulteti, kafedra, bo‘lim va sh.k.) targ‘ib qilishi;
- Kengash qarorlari ijrosini ta‘minlashda shaxsan ishtirok etishi, bu borada boshqalarga o‘rnak bo‘lishi **lozim**.

- Kengash a‘zosi kengash yig‘ilishlarida surunkali 3-marta uzrli sabablarsiz ishtirok etmagan yoki ovoz berish jarayonida surunkali 3 marotaba qatnashmagan taqdirda, u Kengash a‘zolari tarkibidan chiqariladi va egallab turgan lavozimidan ozod etiladi.

- Kengash kun tartibiga kiritilgan masala bo‘yicha ma‘sul kengash a‘zosi Kengash kotibiga o‘ziga tegishli bo‘lgan masala bo‘yicha ma‘lumot va qaror loyihasini yig‘ilishdan kamida 1 kun oldin taqdim etishi talab etiladi. Agar tegishli masala va qaror loyihasi Kengash kotibiga belgilangan muddatda taqdim etilmasa, ushbu masala Kengash a‘zolari tasdig‘i asosida navbatdagi kengash yig‘ilishiga qo‘yiladi.

IV. KENGASH ISHINI REJALASHTIRISH VA TASHKIL ETISH

4.2. Kengash ish rejasini tuzish

4.2.1. Prorektorlar, fakultet dekanlari, kafedra va bo‘lim rahbarlari, boshqa manfaatdor idoralar vakillari Kengash ish rejasini loyihalashtirish uchun o‘z takliflarini har yili iyun-iyul oyi davomida Kengash kotibiga belgilangan shaklda taqdim etadi.

4.2.2. Kengash kotibi taqdim etilgan taklif va mulohazalarni umumlashtiradi, reja loyihalashtiradi, prorektorlar bilan kelishilgan holda joriy yilning 20-avgustiga qadar Kengash raisiga taqdim etadi.

Kengash to‘g‘risidagi NIZOM da ko‘rsatilgan barcha talablar Kengash raisi, rais o‘rinbosari, kengash a‘zolari va kengash kotibi faoliyatiga tegishli bo‘lib, Kengash hujjatlari va ishlarni yuritish Kengash kotibi zimmasiga yuklatiladi.

RAIS: Buxoro davlat universiteti Kengashi to‘g‘risidagi NIZOM ni tasdiqlash taklifini ovozga qo‘yaman.

Tarafdorlar - 65 nafar

Qarshilar - yo‘q

Betaraflar - yo‘q

Kun tartibidagi masala yuzasidan **Kengash qaror qiladi:**

1. Universitet rektori, Kengash raisi O.X. Xamidovning Buxoro davlat universiteti Kengashi to‘g‘risidagi NIZOMni tasdiqlash to‘g‘risida” gi axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Kengash qaroriga asosan, Buxoro davlat universiteti Kengashi to‘g‘risidagi NIZOM tasdiqlansin.

3. Ushbu qaror ijrosini o‘z zimmasida qoldiraman.

II. O‘quv jarayoni yo‘nalishi bo‘yicha:

2.1. Buxoro davlat universitetining Pedagogika institutida o‘quv jarayonining tashkil etilganligi va 2022/2022 o‘quv yilining kuzgi semestri yakunlari to‘g‘risida

ESHITILDI: M.I. Daminov (BuxDUning pedagogika instituti direktori) Buxoro davlat universitetining Pedagogika institutida o‘quv jarayonining tashkil etilganligi va 2022/2022 o‘quv yilining kuzgi semestri yakunlari to‘g‘risida axborot berdi.

2021/2022 o‘quv yili kuzgi semestrda belgilangan vazifalar, xususan ta’lim sifatini oshirish, yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashga bo‘lgan e’tiborni kuchaytirish, o‘quv jarayonini zamonaviy informatsion texnologiyalar bilan boyitish, ta’limni kredit –modul tizimida tashkil qilish, mustaqil ta’limni o‘quv jarayonining bir qismi sifatida joriy qilish, o‘quv jarayonini zamonaviy tashkil etish kabilar institut jamoasining asosiy vazifasi deb belgilandi.

Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining 2021-yil 16-iyuldagi 311-sonli buyrug‘i bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining o‘quv-me’yoriy hujjatlari: malaka talabalari tayanch- Toshkent davlat pedagogika universiteti tomonidan tasdiqlangan, o‘quv rejalari (27 ta), ishchi o‘quv rejalari (15 ta) institut kafedralari tomonidan ishlab chiqildi va tasdiqlandi. Tayyorlangan o‘quv me’yoriy-hujjatlar Buxoro davlat universiteti o‘quv- metodik Kengashining 2021-yil 30-avgustdagi 1-sonli majlis bayoni va institut Kengashining 2021-yil 10-sentabrdagi 1-sonli qarori bilan tasdiqlangan.

Institutning bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo‘yicha talabalar bilim va o‘zlashtirish darajasiga qo‘yiladigan talablar kadrlar buyurtmachilari bilan birgalikda ishlab chiqish mexanizmini yo‘lga qo‘yildi, ta’lim yo‘nalishi va magistratura mutaxassisliklari o‘quv rejalari va fan dasturlari hamkorlikda ishlab chiqildi va o‘rnatilgan tartibda rasmiylashtirildi.

Buxoro davlat universitetining Pedagogika institutida barcha bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha 144 ta va magistratura mutaxassisliklar bo'yicha 72 ta fan o'qitiladi. Barcha fanlarning namunaviy va ishchi o'quv dasturlari tayyorlangan, tasdiqlangan.

2. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2021-yil 16-iyuldagi 311-sonli buyrug'i asosida 2021/2022 o'quv yilidan kunduzgi ta'lim shakli bo'yicha 19 ta, sirtqi ta'lim shakli 11 ta, kechki ta'lim shaklida 4 ta bakalavriat ta'lim yo'nalishi, magistraturaning 8 ta mutaxassisliklari kredit-modul tizimida tashkil qilindi.

311-buyruqning 5-bandiga asosan institutda mavjud bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha o'quv reja va fan dasturlari mutaxassis tayyorlovchi kafedralar tomonidan ishlab chiqilib, institut Kengashining 2021-yil 10-sentabrdagi 1-sonli bayoni bilan tasdiqlandi.

Institutda 2021/2022 o'quv yilida 1-bosqichga qabul qilingan bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari talabalari uchun kredit-modul tizimida o'quv jarayonini tashkil etish bo'yicha yo'riqnoma ishlab chiqildi va o'quv jarayoniga tadbiq etildi.

Fanlar katalogi ishlab chiqildi, fanlar katalogiga kiritilgan majburiy va tanlov fanlarining kodlarini xalqaro standartlar tamoyillariga tayangan holda kodlandi.

2021-2022 o'quv yilidan boshlab institutning barcha bosqich talabalari to'g'risidagi ma'lumotlar NEMIS tizimida mavjud. Talabalarining ta'lim trektoriyasi bo'yicha tizimga fanlarning o'quv resurslari joylashtirilgan, shuningdek talabalarining to'lov shartnomasini olish va monitoring qilish imkoniyati yaratilgan.

NEMIS tizimiga institutdagi barcha bakalavr ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari shakllantirilib, talabalar bazasi yaratilgan.

Kredit-modul tizimi talabalaridan kelib chiqqan holda o'quv jarayonini bosqichma-bosqich takomillashtirib borilmoqda (fanlar bo'yicha tegishli professor-o'qituvchilarni tanlash imkoniyatini yaratish, xalqaro standartlardan kelib chiqib o'quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish).

Institut professor-o'qituvchilariga kredit-modul tizimi, ta'lim resurslari va unda ishlash ko'nikmalari bo'yicha seminar-treninglar o'tkazildi. 1-bosqich talabalarini kredit-modul tizimida o'qitilishini, ularni ta'lim resurslaridan foydalanishlari bo'yicha yo'naltirib borish va ularning institutda talabalarining mustaqil ta'lim olish ko'nikmasini shakllantirish bo'yicha seminar-treninglar tashkil etildi.

HEMIS OTM axborot tizimi hamda Moodle.buxdupi.uz nomli LMS elektron tizim orqali talabalarni darslarda ishtirokini nazorat qilishning samaradorligini oshirishga erishilmoqda va HEMIS tizimida ma'lumotlarni muntazam yangilab borilmoqda.

Institut ARM fondi 8300 tani tashkil qiladi. Shundan, o'quv darsligi 2300 ta, o'quv qo'llanma 3500 ta, elektron darsliklar 2186 tani, audio darslar 750 ta, video darslar 128 ta, uslubiy qo'llanmalar 1007 tani tashkil qiladi. Elektron kitoblarning bazasi xajmi 30 GB, ARMAT dasturidagi elektron bibliografik tavsiflar soni umumiy fondning 78 % ini tashkil qiladi.

3. Institutda ta'lim sifati va talabalar davomatini ta'minlash.

Institutda ta'lim sifati ta'minlash maqsadida asosiy shtatda 125 nafar professor-o'qituvchilar o'quv mashg'ulotlarini olib borishmoqda. Shulardan 2 nafari fan doktori, 28 nafari fan nomzodlari (PhD) bo'lib, ilmiy salohiyat 25,6 % ni tashkil etadi. 93 nafar professor-o'qituvchilar o'rindoshlik va soatbay asosida faoliyat yuritadi.

Ta'lim muassasalarida kafedralarning 5 ta kafedra filiallari tashkil etilgan. Mazkur filiallarda oliy toifali va yuqori malakaga ega mutaxassislar tomonidan amaliy dars mashg'ulotlari olib borilmoqda.

Institutning o'quv-uslubiy bo'lim tomonidan har hafta davomida kafedralar kesimida professor-o'qituvchilarning dars mashg'ulotlarini, ularning me'yoriy hujjatlarini, talabalarining davomatini, hamda HEMIS dasturiga fanlardan resurslarni sifatli joylanib borishini tahlil qilib boradi.

Talabalarining bilimlarini fanlardan o'zlashtirish bo'yicha har bir fanlardan baholash mezonidan kelib chiqib talabalarlarni fanlardan olgan 1-oraliq nazorat baholari HEMIS dasturiga kiritilgan.

4. 2021/2022 o'quv yilining kuzgi attestatsiya jarayonlari natijalari.

2021/2022 o'quv yilida institut talabalar bilimni baholash Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2018-yil 9-avgustdagi "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimni nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2018-yil 26-sentabrda №3069 qayd raqami bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan) 19-2018-son buyrug'i, shuningdek Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2018-yil 29-sentabrdagi buyrug'i hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 824-sonli Qarori asosida amalga oshirildi. Unga binoan har bir fandan talabalar bilimni kredit baholash orqali amalga oshirildi.

Barcha attestatsiya jarayonlarining o'tkazilish grafiklari fakultet dekanlari hamda o'quv-uslubiy bo'lim tomonidan ishlab chiqildi va tasdiqlandi hamda institut professor-o'qituvchilari va talabalariga yetkazildi.

Yakuniy nazoratlari o'tkazilish tartibi O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2018-yil 26-sentabrda №3069 buyrug'iga muvofiq fan o'qituvchisi ishtirokisiz o'tkazildi.

Institutda talabalar bilimni baholashda HEMIS axborot tizimi orqali xolis va adolatli baholanishi ta'minlandi va quyidagi ishlar amalga oshirildi:

- har bir yaratilgan kurslar tarkibida joriy nazoratlarni baholash uchun o'qituvchilar topshiriqlar joylashtirib bordilar. Talabalar mazkur topshiriqlarning javobini belgilangan muddatda elektron (fayl, matn, rasm, video va h.k.) shaklda yubordilar. Fan o'qituvchisi tomonidan o'z vaqtida talabalar baholanib borildi;

- fanlardan yakuniy nazorat turlarini o'tkazish ijtimoiy fanlar uchun test shaklida, alohida iqtidor talab qiladigan fanlardan amaliy imtihon shaklida va qolgan barcha fanlar uchun yozma ish tarzida olish tartibi ishlab chiqildi va amalga oshirildi;

- Ijtimoiy fanlardan yakuniy nazoratlar institutning HEMIS axborot tizimida test topshirish oqali amalga oshirildi. Talabalar student.buxdupi.uz tizimiga talabalar o'zlarining login parollari orqali kirib, yakuniy nazoratlarini topshirish imkoniyatlari yaratildi.

5. Attestatsiya jarayoni yakunlariga ko'ra fakultetlar talabalari o'zlashtirish ko'rsatkichlari quyidagicha:

№	Fakultet (bo'lim) nomi	Talaba soni	Talaba bahosi				O'zlashtirish, %	Sifat, %
			2	3	4	5		
1	Tabiiy va gumanitar fanlar	1036	192	251	528	65	81,3	57,1
2	Pedagogik ta'lim	414	113	114	163	24	73,0	45,6
3	Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim	370	66	80	160	64	82,5	62,1
4	Chaqiriqqacha harbiy ta'lim	136	3	70	48	15	97,1	46,3
5	Kechki ta'lim	219	41	86	69	23	68,1	42,8
6	Sirtqi ta'lim	1037	179	350	471	37	71,6	49,4
7	Magistratura	287	14	81	106	86	91,3	67,5
	Jami	3499	608	1032	1545	314	82,6	53,1

2021/2022 o'quv yilining kuzgi jarayonida institut talabalarining o'zlashtirish sifat darajasi 53,1% ni (27.02.2022y. 1-tur holatida), reyting nazoratlariga qatnashgan 3499 nafar talabadan 2891 (82,6%) nafari nazoratlarni muvaffaqiyatli topshirgan, 608 (14,7%) nafari akademik qarzdor bo'lgan. 314 (9%) nafar talaba nazoratlarni a'lo baholarda topshirgan.

Hozirgi kunga qadar institut professor-o'qituvchilar tomonidan Respublika jurnallarida 20 dan ortiq, Xalqaro jurnallarda 42 ta, Respublika va xalqaro anjumanlarda 70 dan ortiq maqolalar va tezislar chop ettirildi. Institut professor-o'qituvchilari tomonidan 3 ta darslik, 6 ta o'quv qo'llanma, 2 ta monografiya tayyorlandi va 5 ta dasturiy mahsulotlar uchun guvohnomalar shu qisqa vaqt mobaynida qo'lga kiritildi. Institut tarkibidagi barcha (10 ta) kafedralar huzurida Ilmiy tadqiqot markazlari tashkil etilgan hamda 12 ta ta'lim va ishlab chiqarish tashkilotlari bilan hamkorlik shartnomalari tuzilgan va tashkilotlarda kafedra filiallari tashkil qilingan. Albatta institut jamoasi oldida o'quv adabiyotlari yaratish, xalqaro e'tirof etilgan jurnallarda maqolalar chop etish, ilmiy salohiyatni ko'tarish, ilmiy maktablar yaratish kabi ilmiy sohada amalga oshirilishi lozim bo'lgan juda katta vazifalar turibdi.

RAIS: Buxoro davlat universitetining Pedagogika institutida o'quv jarayonining tashkil etilganligi va 2021/2022 o'quv yilining kuzgi semestri yakunlari to'g'risidagi axborot bo'yicha kimda qanday savollar bor?

Ovozlar: yo'q, hammasi tushunarli.

Kun tartibidagi masala yuzasidan **Kengash qaror qiladi:**

1. Buxoro davlat universitetining Pedagogika institutida o'quv jarayonining tashkil etilganligi va 2021/2022 o'quv yilining kuzgi semestri yakunlari to'g'risidagi Institut direktori M.I.Daminovning axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Institutida o'quv jarayonining tashkil etilganligi va 2021/2022 o'quv yilining kuzgi semestri yakunlari bo'yicha amalga oshirilgan ishlar qoniqarli deb topilsin.

3. Hozirgi zamon talablari asosida institut xududida zamonaviy qurilmalar bilan jihozlangan Axborot-resurs markazini barpo etish.

4. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi bilan kelishilgan holda kimyo, biologiya, fizika-astronomiya, matematika-informatika, ta'lim yo'nalishi uchun laboratoriya jihozlarini harid qilish.

5. Qo'shimcha kompyuter va orgtexnika jihozlarini sotib olish.

6. Institut hududini to'liq Wi-Fi zonalarini kengaytirish va to'liq qamrab olish.

7. Institutning innovatsion va ilmiy faoliyatini faollashtirish.

8. Ilmiy salohiyat ko'rsatkichlarini oshirish maqsadida oliy ta'limdan keyingi ta'lim institutini ochish.

9. Institut huzurida ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengashlarni tashkil etish.

10. Scopus hamda Web of science xalqaro indeksatsiyalangan ma'lumotlar bazasi ro'yxatida turgan jurnallarda maqolalar chop etish sonini ko'paytirish.

11. Mazkur qarorning ijrosi nazorati institutning o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari E. Muxtorov zimmasiga yuklatilsin.

III Ilmiy ishlar va innovatsiyalar yo'nalishlari bo'yicha:

3.1. Buxoro davlat universiteti kafedralar huzuridagi ilmiy-tadqiqot markazlari faoliyati tashkil etish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar hamda belgilangan ustuvor vazifalar to'g'risida

ESHITILDI: O.S.Qahhorov (Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev rahbarligida 2021-yil 16-iyun kuni "Oliy ta'lim sohasidagi islohotlar natijadorligi hamda yangi o'quv yiliga tayyorgarlik jarayonlari to'g'risida" o'tkazilgan videoselektor yig'ilishining 34-sonli bayonida kafedralarni tarmoq korxonalarini bog'lash hamda kafedralar huzurida ilmiy-tadqiqot markazlarini tashkil etish vazifasi keltirilgan edi. Belgilangan vazifalar yuzasidan 2021-yilning 11-avgust sanasida universitet rektorining

“Universitet kafedralari huzuridagi ilmiy-tadqiqot markazlarini tashkil etish to‘g‘risida”gi 346-U-sonli buyrug‘i qabul qilindi.

2022-yilning 17-fevral sanasida Buxoro davlat universiteti kafedralari huzuridagi ilmiy-tadqiqot markazlari faoliyatini takomillashtirish, fan va ishlab chiqarish integratsiyasini ta‘minlash bo‘yicha chora-tadbirlar rejasida ishlab chiqildi. Chora-tadbirlar rejasida quyidagi vazifalar belgilandi:

kafedra huzuridagi ilmiy-tadqiqot markazi nizomini ishlab chiqish;

kafedraning ilmiy-tadqiqot faoliyatiga mos ravishda Respublika va viloyatdagi sohaga oid yetakchi tarmoq korxonalarini ro‘yxatini shakllantirish;

ro‘yxat asosida kafedraning ilmiy-tadqiqot faoliyatiga mos bo‘lgan Respublika va viloyatdagi sohaga oid yetakchi tarmoq korxonalar bilan hamkorlik shartnomalarini imzolash;

hamkorlik shartnomalari imzolangan tarmoq korxonalarini muammolari bazasini yaratish;

markazning 3 yillik dasturini ishlab chiqish;

kafedra huzuridagi ilmiy-tadqiqot Markazida ko‘rsatiladigan pullik xizmatlar ro‘yxatini hamda narxlarini shakllantirish.

Chora-tadbirlar rejasiga belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan barcha kafedralar tomonidan ilmiy-tadqiqot markazi nizomi ishlab chiqildi. Tarmoq korxonalarini hamda turli tashkilotlar bilan 10 yilga mo‘ljallangan 197 ta hamkorlik shartnomalari imzolandi. Hamkorlik shartnomalari asosida tarmoq korxonalarini hamda tashkilotlarning 281 ta muammolari bazasi yaratildi. Ilmiy-tadqiqot markazlarining tegishli tarmoq korxonalarini muammolarini ilmiy yechishga yo‘naltirilgan 3 yillik ilmiy-tadqiqot ishlari dasturi ishlab chiqildi. Ilmiy-tadqiqot markazlari orqali ko‘rsatilishi mumkin 407 ta xizmat turlari hamda ularning narxlarini shakllantirildi.

2021-yilning 26-fevral sanasida universitet rektorining har bir kafedra kesimida ular huzurida ilmiy-tadqiqot markazlari tashkil etish bo‘yicha 79-U...-...115-U-sonli buyruqlari qabul qilindi. Buyruq bilan kafedra mudirlari bildirishnomasiga asosan, markazlar nizomi, 3 yillik dasturi, markaz xodimlari tarkibi, markazda ko‘rsatiladigan xizmat turlari hamda narxlarini tasdiqlab berildi. Barcha xujjatlar yig‘ma jildida shakllantirilib, markaz nomlari ko‘rsatilgan tablichkalar bilan birgalikda kafedra mudirlariga taqdim etildi. Rektor buyrug‘ida kafedra mudirlariga markaz faoliyatini takomillashtirish orqali fan va ishlab chiqarish integratsiyasini ta‘minlash, ilmiy-tadqiqot markazlari orqali o‘z-o‘ziga mablag‘ topish faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yish, markaz orqali fundamental, amaliy, innovatsion, tijoratlashtirish va startap loyihalarni shakllantirish hamda turli tanlovlarga taqdim etish, markazlar faoliyati yuzasidan yilida 2-marta (6 oylik va yillik faoliyat natijalari bo‘yicha) universitet kengashiga hisobot berish vazifasi yuklatildi. Ilmiy-tadqiqot, innovatsiyalar va ilmiy pedagog kadrlarni tayyorlash hamda ilmiy-innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish bo‘limi tomonidan fundamental, amaliy, innovatsion, tijoratlashtirish va startap loyihalarni tayyorlash hamda tanlovlarga taqdim etish tartibi hamda markazlar faoliyatini samarali tashkil etish bo‘yicha muntazam ravishda seminar-treninglar o‘tkazish rejalashtirilgan.

RAIS: Buxoro davlat universiteti kafedralar huzuridagi ilmiy-tadqiqot markazlari faoliyati tashkil etish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar hamda belgilangan ustuvor vazifalar to‘g‘risidagi axborot bo‘yicha kimda qanday savollar bor?

Ovozlar: hammasi tushunarli.

Kun tartibidagi masala yuzasidan **Kengash qaror qiladi:**

1. Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor O.S. Qahhorovning axboroti ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. Ilmiy-tadqiqot markazlari faoliyati Nizom talablari asosida samarali yo‘lga qo‘yilsin (mas‘ul: kafedra mudirlari va fakultet dekanlari).

3. Tarmoq korxonalarini xamda tegishli tashkilotlarning muammolari bazasi asosida markazlarda ilmiy-tadqiqot faoliyati tashkil etilsin hamda muammolar bazasi muntazam ravishda yangilanib borilsin (mas‘ul: kafedra mudirlari va fakultet dekanlari).

4. Kafedralar huzuridagi markazlarda bajarilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlariga iqtidorli talabalar hamda doktorantlar keng jalb etilsin (mas'ul: kafedra mudirlari va fakultet dekanlari).

5. Tarmoq korxonalari xamda tegishli tashkilotlarning muammolari bazasi asosida magistrlik hamda doktorlik dissertatsiyalari mavzulari shakllantirilsin (mas'ul: kafedra mudirlari, IT, I va IPKTB boshlig'i).

6. Ushbu qaror ijrosining nazorati ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor O.S. Qahhorov zimmasiga yuklatilsin.

3.2. Universiteti innovatsion kengashi to'g'risida nizomni hamda innovatsion kengash a'zolari tarkibini tasdiqlash to'g'risida

ESHITILDI: O.S.Qahhorov (Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor) Buxoro davlat universiteti innovatsion kengashi nizomi hamda innovatsion kengash tarkibini tasdiqlash to'g'risida axborot berdi.

Buxoro davlat universiteti xuzuridagi Innovatsion Kengash (keyingi o'rinlarda Kengash) universitetining innovatsion, ilmiy va ilmiy-texnik siyosatini shakllantirish va amaliyotga tatbiq etish hamda uzluksiz talim tizimida ilmiy va ilmiy-pedagogik xodimlar tayyorlash sohasidagi ekspert-Kengashuv organi hisoblanadi.

Kengashning asosiy vazifalariga qo'yidagilar kiradi:

- Innovatsion jamg'arma mablag'larining to'liq shakllanishi va maqsadli ishlatilishi uchun Innovatsion jamg'arma faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirish;

- Innovatsion jamg'arma tomonidan qo'liq hamda qisman moliyalashtiriladigan, shuningdek Kengash tomonidan tasdiqlangan innovatsion faoliyatning ustuvor yo'nalishlariga muvofiq innovatsion va startap loyihalarni tanlov asosida tanlab olish tartibini belgilash;

- mualliflik huquqi (patentlar) shu jumladan, xorijda ham rasmiylashtiriladigan universitet innovatsion faoliyati doirasida yaratilgan innovatsion mahsulot va xizmatlar, shuningdek intellektual mulk obyektlari ro'yxatini tasdiqlash;

- innovatsion jamg'arma mablag'lari hisobidan, Kengash tomonidan tasdiqlangan innovatsion faoliyatning ustuvor yo'nalishlariga muvofiq, innovatsion loyixalarni tanlov asosida tanlab olish tartibini belgilash;

- innovatsion loyihalarni amalga oshirish uchun foydalanadigan maxsus uskunalardan foydalanish ko'nikmasini shakllantirish, tajriba va ilmiy tadqiqotlar o'tkazish uchun yetakchi ilmiy markazlar va ishlab chiqarish tashkilotlariga (shu jumladan xorijiy) universitet tadqiqotchilari va talabalarini tanlov o'tkazish orqali qisqa muddatli (bir oygacha) ilmiy stjirovkaga saralash ishlarini tashkil etish;

- innovatsion mahsulotlarni tijoratlashtirishdan olinadigan daromadlarni oshirishga, xorijiy investitsiyalar, grantlar va xayriya mablag'larini jalb qilishda ko'maklashish;

- universitetda startaplar yaratish ekotizimini takomillashtirish;

- innovatsion jamg'arma xarajatlar smetasini o'rnatilgan tartibda tasdiqlash;

- Innovatsion jamg'arma mablag'larining shakllanishi va foydalanilishi bilan bog'liq bo'lgan boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Innovatsion kengash tarkibi Kengash raisi, rais o'rinbosari, ilmiy kotib va Kengash azolaridan iborat holda shakllanadi. Universitet rektori innovatsion kengashga raislik qiladi. Innovatsion kengash tarkibiga universitetning olim va mutaxassislari, kafedra mudirlari, ma'sul xodimlari kiritildi.

I-илова

**Buxoro davlat universiteti
Innovatsion Kengashi to'g'risida
NIZOM**

I. Umumiy ma'lumotlar

1.1. Buxoro davlat universiteti xuzuridagi Innovatsion Kengash (keyingi o‘rinlarda Kengash) universitetining innovatsion, ilmiy va ilmiy-texnik siyosatini shakllantirish va amaliyotga tatbiq etish hamda uzluksiz talim tizimida ilmiy va ilmiy-pedagogik xodimlar tayyorlash sohasidagi ekspert-Kengashuv organi hisoblanadi.

1.2. Kengash o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi, “Talim to‘g‘risida”gi va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” to‘g‘risidagi qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 7-avgustdagi “Fan va texnologiyalar rivojlanishini muvofiqlashtirish va boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlar to‘g‘risidagi” PQ-436-sonli, 2018-yil 7-maydagi “Iqtisodiyot tarmoqlari va sohalariga innovatsiyalarni joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3698-sonli, 2018-yil 14-iyuldagi “Ilmiy va ilmiy-texnikaviy faoliyat natijalarini tijoratlashtirish samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3855-sonli, 2021-yil 24-dekabrda “Davlat oliy ta‘lim muassasalarining akademik va tashkiliy boshqaruv mustaqilligini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-60-sonli, 2021-yil 24-dekabrda “Davlat oliy ta‘lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-61-sonli qarorlari, ilm-fan sohasiga tegishli boshqa huquqiy-meyoriy hujjatlar asosida Buxoro davlat universitetining Nizomi va ushbu Nizomga muvofiq amalga oshiradi.

II. Kengashning asosiy maqsadi va faoliyat yo‘nalishlari

2.1. Kengashning faoliyati Buxoro davlat universitetining innovatsion, ilmiy va ilmiy-texnik siyosatini shakllantirishning asosiy tamoyillari va amaliyotga tatbiq qilish mexanizmlarni ishlab chiqishdan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Shuningdek:

- tadqiqotlarning tematik rejalari, ilmiy-texnik va innovatsion daturlarni shakllantirishga xilma-xillikni taminlagan holda tanlov asosida yondashish;

- talim jarayoni va ilmiy tadqiqotlarni yuqori saviyada amalga oshirish salohiyatiga ega bo‘lgan yetakchi olimlar, ilmiy laboratoriya va markazlar, innovatsion guruhlar, ilmiy va ilmiy-pedagogik maktablarni qo‘llab-quvvatlash, yoshlar ilmiy-ijodiy faoliyatini rivojlantirish;

- yangi bilimlar yaratish va yuksak texnologiyalarni o‘zlashtirishga zamin sifatida fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlarni ustuvor rivojlantirish, fan va texnikaning eng muhim yo‘nalishlarida ilmiy maktablarni hamda yetakchi ilmiy jamoalarni shakllantirish va rivojlantirish;

- pedagog hodimlar, iqtidorli yoshlar, talabalarning ilmiy-ijodiy izlanishlarini tizimli asosida tashkillashtirish, har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish;

- mavjud ilmiy salohiyatdan ishlab chiqarishni tubdan yangilash va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar yo‘lida samarali foydalanish;

2.2. Kengashning asosiy vazifalariga qo‘yidagilar kiradi:

- Innovatsion jamg‘arma mablag‘larining to‘liq shakllanishi va maqsadli ishlatilishi uchun Innovatsion jamg‘arma faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirish;

- Innovatsion jamg‘arma tomonidan qo‘liq hamda qisman moliyalashtiriladigan, shuningdek Kengash tomonidan tasdiqlangan innovatsion faoliyatning ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq innovatsion va startap loyihalarni tanlov asosida tanlab olish tartibini belgilash;

- mualliflik huquqi (patentlar) shu jumladan, xorijda ham rasmiylashtiriladigan universitet innovatsion faoliyati doirasida yaratilgan innovatsion mahsulot va xizmatlar, shuningdek intellektual mulk obyektlari ro‘yxatini tasdiqlash;

- innovatsion jamg‘arma mablag‘lari hisobidan, Kengash tomonidan tasdiqlangan innovatsion faoliyatning ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq, innovatsion loyixalarni tanlov asosida tanlab olish tartibini belgilash;

- innovatsion loyihalarni amalga oshirish uchun foydalanadigan maxsus uskunalaridan foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish, tajriba va ilmiy tadqiqotlar o‘tkazish uchun yetakchi ilmiy markazlar va ishlab chiqarish tashkilotlariga (shu jumladan xorijiy) universitet tadqiqotchilari va

talabalarini tanlov o'tkazish orqali qisqa muddatli (bir oygacha) ilmiy stjirovkaga saralash ishlarini tashkil etish;

- innovatsion mahsulotlarni tijoratlashtirishdan olinadigan daromadlarni oshirishga, xorijiy investitsiyalar, grantlar va xayriya mablag'larini jalb qilishda ko'maklashish;
- universitetda startaplar yaratish ekotizimini takomillashtirish;
- innovatsion jamg'arma xarajatlar smetasini o'rnatilgan tartibda tasdiqlash;
- Innovatsion jamg'arma mablag'larining shakllanishi va foydalanilishi bilan bog'liq bo'lgan boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

2.3. Kengash faoliyatining asosiy yo'nalishlari:

- davlat tomonidan moliyalashtiriladigan va iqtisodiyotning raqobatbardoshligini taminlashga qaratilgan ilmiy-tadqiqotlarni amalga oshirish tizimini shakllantirish, takomillashtirish va muvofiqlashtirish;

- milliy ilmiy-texnik maxsulotlar, texnologiyalarni yaratish va tijoratlashtirish uchun budjet va nobudjet resurslarni maqsadli yo'naltirish mexanizmlarini shakllantirish;

- innovatsion faoliyatni rivojlantirish, qo'llab-quvvatlash va takomillashtirish;

- Respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha universitet takliflarni shakllantirish va tasdiqlash;

- Respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari asosida universitetning fundamental, amaliy va innovatsion ilmiy-texnik tadqiqotlar dasturlarini shakllantirish va tasdiqlash;

- universitet fundamental, amaliy, innovatsion ilmiy-texnik tadqiqotlar dasturlari doirasida bajariladigan ilmiy loyihalarni oraliq yillik hisobotlarni o'z vaqtida topshirish;

- olib boriyotgan fundamental, amaliy, innovatsion ilmiy-texnik tadqiqotlarning joriy ahvoliga oid tahliliy materiallar, hamda mazkur tadqiqotlarni rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlari bo'yicha tavsiyalar tayyorlash;

- universitetda olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot faoliyati samaradorligini taminlash, hamda natijalarni talim tizimi va ishlab chiqarishni joriy qilishning uslubiy-meyoriy asoslarini ishlab chiqish;

- ilmiy, ilmiy-texnik va innovatsion faoliyatini boshqarish tizimining samaradorligini baholash va takomillashtirish bo'yicha takliflar tayyorlash;

- universitetda ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan uslubiy-meyoriy asoslarni shakllantirish;

- doktorantlar, tayanch doktorantlar hamda mustaqil izlanuvchilarning muhim ahamiyatga ega bo'lgan loyihalari bo'yicha tanlovlarni tashkil etish, qo'llab-quvvatlash hamda ularni amaliyotga joriy etish bo'yicha chora-tadbirlarini amalga oshirish;

- universitetda talabalarining ilmiy-tadqiqotlarini samarali tashkil etish, masalalarni muhokamaga qo'yish va tegishli qarorlar qabul qilish;

- zarur hollarda universitetning ilmiy-tadqiqot faoliyati bo'yicha hisobotlarni muhokama qilish va tegishli qarorlar qabul qilish;

- doktorantlar, tayanch doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar, magistrilar hamda talabalarni ilmiy-tadqiqot va loyihalash-konstruktorlik ishlariga jalb qilish;

- fundamental, amaliy, innovatsion tadqiqotlar saviyasini oshirishga va ularning natijalarini talim jarayoniga tadbir qilishga yo'naltirilgan universitet, akademik va tarmoq ilmiy muassasalari integratsiyasini taminlash;

- doktorantlar, tayanch doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar, magistrilar hamda talabalarda tadbirkorlikning ilmiy-texnik hamda innovatsion biznes ko'nikmalarini shakllantirish maqsadida ularni ilmiy markaz va laboratoriyalar, ilmiy-texnik parklar va boshqa innovatsion tuzilmalariga jalb qilish;

III. Kengashning tarkibi, tuzilmasi va ish faoliyatini tashkil etishning asosiy tamoyillari

3.1. Kengash tarkibi Kengash raisi, rais o‘rinbosari, ilmiy kotib va Kengash azolaridan iborat holda shakllanadi.

3.2. Universitet rektori Kengashga raislik qiladi.

3.3. Kengashga universitetning (shu jumladan chet el OTM lari) yetakchi olim va mutaxassislari, yetakchi kafedra mudirlari, ma’sul xodimlari, zarur hollarda iste’molchi tashkilotlar vakillari, yakka tartibda yetuk olim va mutaxassislar azo qilib kiritilishi mumkin.

3.4. Kengashning tuzilmasi va tarkibi, Kengash raisining o‘rinbosari, hamda ilmiy kotibi universitet bo‘yruqi bilan tasdiqlanadi.

3.5. Ikki va undan ortiq kafedralar vakolatiga taalluqli masalalarni ko‘rib chiqishda kafedraning birgalikda Kengashlari o‘tkazilishi mumkin.

3.6. Ayrim muhim masalalarni muhokama etish va ekspert xulosalari tayyorlash uchun Kengash zarur hollarda Ekspertlar Kengashini tashkil etishi mumkin. Ularning tarkibi Kengash raisi tomonidan tasdiqlanadi.

3.7. Kengash o‘z faoliyatini universitet raxbariyati tavsiyalariga ko‘ra Kengash va kafedra azolari tomonidan shakllantiriladigan va Kengash raisi tomonidan tasdiqlanadigan kalendar yillik ish rejasida tashkil etadi.

3.8. Kengash o‘z faoliyatiga vazirlik va vazirlik tasarrufidagi talim muassasalaridan boshqa tashkilotlardan o‘rnatilgan tartibda mutaxassislarni maruza qilishga, ekspert va maslaxatchi sifatida jalb etishi mumkin.

3.9. Kengash majlislariga materiallar, ma’ruzalar, korxonalar loyixalarini tayyorlash vazifasi universitet bo‘limlariga, fakultet va kafedralardan jalb etilganlarga yuklanishi mumkin.

3.10. Kengash materiallarini ko‘paytirish va tarqatish Kengash kotibiyati tomonidan amalga oshiriladi.

3.11. Kengash har yili joriy yil ish rejasining bajarilishini muhokama etish va keyingi yil ish rejasini tasdiqlash bo‘yicha plenar yig‘ilish o‘tkazadi.

3.12. Kengash raisi Kengash faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi, Kengash yig‘ilishlarini olib boradi, muhim masalalar bo‘yicha tashkil etilgan ekspert guruhlar qaror va takliflarni tasdiqlaydi.

IV. Kengash qarorlari bajarilishini nazorat qilish

4.1. Kengash qaror va tavsiyalarning tegishli kafedra va bo‘linmalarda bajarilishi bo‘yicha umumiy nazorat ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor zimmasiga yuklanadi.

4.2. Ushbu Nizomga o‘zgartirish kiritish universitet kengashi tomonidan amalga oshiriladi.

4.3. Nizom universitet kengashining 2022-yil «___» «_____» dagi ___– sonli qarori bilan tasdiqlangan.

Buxoro davlat universiteti innovatsion kengash a’zolari

2-илова

T/r.	F.I.O	Lavozimi
1.	Xamidov Obidjon Hafizovich	Universitet rektori, i.f.d., prof., rais
2.	Qahhorov Otabek Siddiqovich	Universitet ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, i.f.d. (DSc), dots., rais o‘rinbosari
3.	Sayfulloyev Oybek Olimovich	Universitet ilmiy-innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish bo‘limi boshlig‘i, kotib
4.	Zaripov Gulmurod Toxirovich	Universitet ilmiy tadqiqot, innovatsiyalar va ilmiy-pedagog kadrlarni tayyorlash bo‘limi boshlig‘i, t.f.n., dots., a’zo
5.	Jo‘rayev Abror Turopovich	Universitet halqaro hamkorlik bo‘yicha prorektori, i.f.n., a’zo
6.	Rashidov O‘Imas Umarovich	Universitet moliya va iqtisod ishlari bo‘yicha prorektori, a’zo

7.	Naimov Azamat Xikmatovich	O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi Buxoro viloyat hududiy boshqarmasi boshlig'i, a'zo
8.	Jumayev Rustam G'aniyevich	Universitet o'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i, s.f.f.d. (PhD), dots., a'zo
9.	Yavmutov Dilshod Shoymandonqulovich	Iqtisodiyot va turizm fakulteti dekani, i.f.n., dots., a'zo
10.	Jo'rayev Husniddin Oltinboevich	Fizika-matematika fakulteti dekani, p.f.d. (DSc), dots., a'zo
11.	Eshonqulov Xamza Ilxomovich	Axborot texnologiyalari fakulteti dekani, t.f.f.d. (PhD), dots., a'zo
12.	Atabayev Nozimjon Bobojonovich	Xorijiy tillar fakulteti dekani, f.f.f.d. (PhD), a'zo
13.	Artikova Hafiza To'ymurodovna	Agronomiya va biotexnologiya fakulteti dekani, b.f.d. (DSc), prof., a'zo
14.	Niyozov Erkin Dilmurodovich	Tabiiy fanlar fakulteti dekani, t.f.n., dots., a'zo
15.	Rajabov Dilshod Rajabovich	Filologiya fakulteti dekani, f.f.d. (DSc), dots., a'zo
16.	Jo'rayev Jamshed Raxmutilloevich	Tarix va madaniy meros fakulteti dekani, a'zo
17.	Navruz-Zoda Baxtiyor Nigmatovich	Servis sohasi iqtisodiyoti kafedrası professori, i.f.d., a'zo
18.	Olimov Shirinboy Sharofovich	Pedagogika kafedrası professori, p.f.d., a'zo
19.	Ibragimov Nutfillo Salimovich	Servis sohasi iqtisodiyoti kafedrası dotsenti, i.f.d. (DSc), a'zo
20.	Narziyev Ulug'bek Sa'dullayevich	Universitet bosh hisobchisi, a'zo
21.	Adizov Bobir Baxtiyorovich	Reja-moliya bo'limi boshlig'i, a'zo
22.	Shafiyev Tursun Rustamovich	Axborot texnologiyalari kafedrası dotsenti, t.f.f.d. (PhD), a'zo
23.	Nazarov Akmal Mardonovich	Psixologiya kafedrası dotsenti, ps.f.f.d. (PhD), a'zo

RAIS: Buxoro davlat universiteti innovatsion kengashi nizomi hamda innovatsion kengash tarkibini tasdiqlash to'g'risidagi axborot bo'yicha kimda qanday savollar bor?

Ovozlar: hammasi tushunarli.

Kun tartibidagi masala yuzasidan **Kengash qaror qiladi:**

1. Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor O.S. Qahhorovning axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.
2. Universiteti innovatsion kengashi nizomi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
3. Universiteti innovatsion kengashi tarkibi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
4. Universitet innovatsion kengashining asosiy vazifalari sifatida:
 - Innovatsion jamg'arma mablag'larining to'liq shakllanishi va maqsadli ishlatilishi uchun Innovatsion jamg'arma faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirish;
 - Innovatsion jamg'arma tomonidan qo'liq hamda qisman moliyalashtiriladigan, shuningdek Kengash tomonidan tasdiqlangan innovatsion faoliyatning ustuvor yo'nalishlariga muvofiq innovatsion va startap loyihalarni tanlov asosida tanlab olish tartibini belgilash;
 - mualliflik huquqi (patentlar) shu jumladan, xorijda ham rasmiylashtiriladigan universitet innovatsion faoliyati doirasida yaratilgan innovatsion mahsulot va xizmatlar, shuningdek intellektual mulk obyektlari ro'yxatini tasdiqlash;

- innovatsion jamg'arma mablag'lari hisobidan, Kengash tomonidan tasdiqlangan innovatsion faoliyatning ustuvor yo'nalishlariga muvofiq, innovatsion loyihalarni tanlov asosida tanlab olish tartibini belgilash;

- innovatsion loyihalarni amalga oshirish uchun foydalanadigan maxsus uskunalardan foydalanish ko'nikmasini shakllantirish, tajriba va ilmiy tadqiqotlar o'tkazish uchun yetakchi ilmiy markazlar va ishlab chiqarish tashkilotlariga (shu jumladan xorijiy) universitet tadqiqotchilari va talabalarini tanlov o'tkazish orqali qisqa muddatli (bir oygacha) ilmiy stjirovkaga saralash ishlarini tashkil etish;

- innovatsion mahsulotlarni tijoratlashtirishdan olinadigan daromadlarni oshirishga, xorijiy investitsiyalar, grantlar va xayriya mablag'larini jalb qilishda ko'maklashish;

- universitetda startaplar yaratish ekotizimini takomillashtirish;

- innovatsion jamg'arma xarajatlar smetasini o'rnatilgan tartibda tasdiqlash;

- Innovatsion jamg'arma mablag'larining shakllanishi va foydalanilishi bilan bog'liq bo'lgan boshqa vakolatlarni amalga oshirish kabilar belgilansin.

Ushbu qaror ijrosining nazorati ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor O.S. Qahhorov zimmasiga yuklatilsin.

IV. Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar yo'nalishi bo'yicha:

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 19-yanvardagi "Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-92-son qarori asosida talabalarining bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish to'g'risida

ESHITILDI: A.M. Kadirov (Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 19-yanvardagi "Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-92-son qarori asosida Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 24-yanvardagi 30-sonli buyrug'ida belgilangan vazifalarga bag'ishlab 2022-yil 18-fevral kuni universitet rektori rahbarligida o'tkazilgan yig'ilishda belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida universitet rektorining 2022-yil 4-fevraldagi 38-U hamda 61-U sonli buyruqlari ishlab chiqildi.

Unga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 19-yanvardagi PQ-92-sonli qarori ijrosi yuzasidan **Buxoro davlat universitetida amalga oshiriladigan ishlar bo'yicha chora-tadbirlar dasturi** tasdiqlandi.

Barcha fakultetlar va fakultetlarda faoliyat olib boruvchi tyutorlar tomonidan Talabalar turar joyida hamda fakultetlarda (ijarada yashovchi va o'z uyida istiqomat qiluvchi talabalarni qamrab olgan holda) madaniy va ma'rifiy tadbirlar, sport musobaqalari, tanlov va loyihalar, mushoiralarni tashkil etish bo'yicha **2022-yilga mo'ljallangan yillik kalendar-reja tasdiqlandi.**

Mazkur qaror ijrosi yuzasidan 2022-yil 18-fevral kuni universitet rektori rahbarligida yig'ilish o'tkazildi va quyidagi tadbirlarni amalga oshirish belgilandi:

- 2022-yilning 21-28-fevral kunlari barcha fakultetlarda **"1-mart – Zulfiyaxonim tavallud topgan kun"** hamda **"8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni"** munosabati bilan onlayn tanlovlar e'lon qilindi.

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 8-yanvardagi "2022-yildagi Respublika ijtimoiy-ma'naviy muhitini sog'lomlashtirish, diniy bag'rikenglik hamda millatlararo totuvlikni mustahkamlash yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar samaradorligi va ta'sirchanligini yanada oshirish to'g'risida"gi 4-son bayoniga muvofiq 2022-yilning 21-fevralidan 4-martiga qadar universitet talaba-yoshlari o'rtasida **"Ekstremizm, terrorizm va missionerlikning mudhish qiyofasini fosh etish"** mavzusida rasmlar tanlovi e'lon qilindi.

- Tanlovning universitet bosqichida faxrli 1-, 2-, 3-o'rinlarni egallagan talabalarining ijodiy ishlari respublika bosqichida ishtirok etish uchun 2022-yilning 10-martiga qadar Oliy va o'rta maxsus talim vazirligi huzuridagi Ma'naviy-axloqiy tarbiya boshqarmasiga taqdim etiladi.

- Tanlovning universitet bosqichida g'oliblikni qo'lga kiritgan talabalar diplom va esdalik sovg'alari bilan taqdirlanadi.

Universitet xotin-qizlar maslahat kengashi hamda xotin-qizlar maslahat kengashi raislari, dekan maslahatchilari tomonidan:

“1-mart – Zulfiyaxonim tavallud topgan kun” munosabati bilan:

- Universitet Bosh yig‘ingohida 2022-yil 1-mart kuni soat 14-00da madaniy-ma’rifiy tadbir o‘tkaziladi.

- Madaniy-ma’rifiy tadbir davomida universitet foyesida talabalarning ijodiy ko‘rgazmasi tashkil etiladi.

“1-mart Zulfiyaxonim tavallud topgan kun” munosabati bilan 2022-yil 21-28-fevral kunlari barcha fakultetlarda tanlov tashkil etilib, g‘oliblar munosib rag‘batlantiriladi.

-Barcha fakultetlarda va Talabalar turar joyida joriy yilning 1-mart kuni Zulfiyaxonim tavallud topgan kun munosabati bilan barcha fakultet xotin-qizlar maslahat kengashi raislari, dekan maslahatchilari tomonidan madaniy-ma’rifiy tadbir hamda tanlovlar tashkil etiladi.

“8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni” munosabati bilan:

- Universitet Bosh yig‘ingohida 2022-yil 5-mart kuni soat 10-00da madaniy-ma’rifiy tadbir tashkil etiladi.

- Madaniy-ma’rifiy tadbir davomida universitet foyesida talabalarning “Ayolga ehtirom” mavzusida ijodiy ko‘rgazmasi tashkil etiladi.

-E‘lon qilingan tanlovlarda barcha talabalarni qamrab olishga alohida e‘tibor qaratildi.

-Barcha fakultetlarda va Talabalar turar joyida joriy yilning **“8-mart - Xalqaro xotin-qizlar kuni”** munosabati bilan barcha fakultet xotin-qizlar maslahat kengashi raislari, dekan maslahatchilari tomonidan madaniy-ma’rifiy tadbir hamda tanlovlar tashkil etiladi.

- Talaba sport klubi hamda BuxDU sport targ‘ibotchisi tomonidan:

-“1-mart – Zulfiyaxonim tavallud topgan kun” hamda **“8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni”** munosabati bilan universitet xotin-qizlari o‘rtasida sport turlari bo‘yicha tanlovlar e‘lon qilindi.

- 2022-yilning 21-fevralidan 4-martga qadar sport musobaqalari o‘tkazilmoqda.

Universitet Yoshlar ittifoqi BT yetakchisi tomonidan:

- **“1-mart – Zulfiyaxonim tavallud topgan kun” hamda “8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni”** munosabati bilan:

- **2022-yil 21-fevraldan 3-martga qadar barcha fakultetlar tomonidan shakllantirilgan talaba-qizlardan iborat “Zakovat” intellektual o‘yinlari e‘lon qilindi va o‘tkazilmoqda.**

- **2022-yil 21-28-fevral kunlari barcha fakultetlar tomonidan shakllantirilgan talaba-qizlardan iborat “Quvnoqlar va zukkolar” bellashuvi o‘tkaziladi.**

Barcha fakultet dekanlari, Yoshlar bilan ishlash bo‘yicha dekan o‘rinbosarlari va tyutorlar tomonidan:

- Fakultetda **“Talabalar teatr studiyasi”** jamoasi shakllantiriladi.

- Shakllantirilgan jamoa tomonidan **har oyda bir marta** universitet Bosh yig‘ingohida ixtiyoriy mavzuda sahna ko‘rinishlari tashkil etiladi.

Ushbu topshiriq ijrosi yuzasidan 2022-yil 23-fevral kuni Jismoniy madaniyat fakultetining Talabalar teatr studiyasi jamoasi tomonidan universitet Bosh yig‘ingohida “Tuhmatchilar jazosi” nomli spektakl namoyish etdi.

San‘atshunoslik, Maktabgacha va boshlang‘ich ta‘lim hamda Pedagogika fakultetlari tomonidan:

- **Har haftaning seshanba kuni universitet Bosh bino foyesida hamda har haftaning chorshanba kuni** Talabalar turar joyi foyesida talabalarning ijodiy ishlari yuzasidan ko‘rgazma tashkil etish belgilandi.

- Unga ko‘ra San‘atshunoslik fakulteti 2022-yil 22-fevral kuni universitet Bosh bino foyesida talabalarning ijodiy ishlar ko‘rgazmasi tashkil etildi va ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritildi.

“1-mart – Zulfiyaxonim tavallud topgan kun” hamda “8-mart– Xalqaro xotin-qizlar kuni” munosabati bilan universitet o‘tkaziladigan tadbirlar hamda e‘lon qilingan tanlov g‘oliblarini rag‘batlantirish bilan bog‘liq xarajatlar universitet mablag‘lari, Talaba sport klubi hamda xodimlar

kasaba uyushma qo‘mitasi mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi.

RAIS: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 19-yanvardagi “Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-92-son qarori asosida talabalarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazish to‘g‘risidagi axborot bo‘yicha kimda qanday savollar bor?

Ovozlar: hammasi tushunarli.

Kun tartibidagi masala yuzasidan **Kengash qaror qiladi:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 19-yanvardagi “Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-92-son qarori ijrosi yuzasidan 2022-yil davomida universitetda amalga amalga oshirilagan ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar to‘g‘risidagi masala yuzasidan Yoshlar masalalari va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha prorektor A.Kadirovning axboroti ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. Talabalar turar joyida har bir kafedralar tomonidan **har oyda bir marotaba “Kafedra kuni”** tadbirlarini o‘tkazishga alohida e‘tibor qaratilsin. “Kafedra kunlari” rejalarida mas‘ul shaxslarni belgilash, tadbirlarni o‘tkazilishini nazorat qilish kafedra mudirlari va dekan o‘rinbosarlariga yuklatilsin.

3. Talabalarning qiziqishlari va talablarini inobatga olgan holda talabalar turar joyida to‘garak va klublar tashkil etilsin. To‘garak mashg‘ulotlarining sifatli o‘tkazilishi kafedra mudirlari va dekan o‘rinbosarlariga yuklatilsin.

4. Talabalarni darsdan keyingi bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazish maqsadida ularni fan, hunar va sport to‘garaklariga keng jalb etilsin, bu borada kafedra mudirlari va tyutorlarning mas‘uliyati oshirilsin (mas‘ul: dekanlar, dekan o‘rinbosarlari, kafedra mudirlari, tyutorlari. Muddat: o‘quv yili davomida).

5. Har bir fakultet Tva alabalar turar joyida madaniy va ma‘rifiy tadbirlar, sport musobaqalari, tanlov va loyihalar, mushoiralar har kuni o‘tkazilsin, kunduzgi va kechki vaqtlarga alohida tadbirlar belgilash nazarda tutilsin (mas‘ul: barcha fakultet dekanlari, dekan o‘rinbosarlari, tyutorlar).

6. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish Yoshlar masalalari va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor A.Kadirov zimmasiga yuklatilsin.

V. Xalqaro hamkorlik bo‘yicha:

5. Universitet ta‘lim, ilmiy, tashkiliy-boshqaruv va boshqa faoliyatlariga xorijiy mutaxassis va vatandoshlarni jalb qilish bo‘yicha.

ESHITILDI: Xalqaro hamkorlik bo‘yicha prorektor A.T.Jo‘rayev: 2021-yilda Buxoro davlat universitetida **44 nafar xorijlik** professor-o‘qituvchi ta‘lim faoliyatini olib bordi. Pandemiya tufayli ularning faqatgina bir necha nafari an‘anaviy shaklda dars bergan bo‘lsa, aksariyati bilan onlayn shaklda dars berish bo‘yicha mehnat shartnomasi imzolandi. Yevropa Ittifoqining Erasmus+ dasturi, AQShning Fulbrayt dasturi, shuningdek qo‘shma ta‘lim dasturlari doirasida ma‘ruza o‘qigan professor-o‘qituvchilardan tashqari, 35 nafardan ortiq xorijlik o‘qituvchilar uchun soatbay ish haqi BuxDU byudjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan **har bir soat uchun 10-15 dollar** atrofida belgilandi. Taklif qilingan xorijlik o‘qituvchilarning barchasi jahon akademik reytinglarida **yuqori 1000 talikka kiruvchi OTMlardan** bo‘lishi ta‘minlandi. Ular qatorida Vatel mehmonxona va turizm biznes maktabi (Fransiya), Sasseks universiteti (Angliya), Myunster universiteti (Germaniya), Moskva davlat universiteti, Qozon federal universiteti (Rossiya) kabilarni ko‘rsatib o‘tish mumkin. **Jami 2,5 ming soatga** yaqin dars xorijlik professor-o‘qituvchilar tomonidan o‘tildi.

2021-2022 o'quv yilida 01.02.2022 yil holatida 16 nafar professor-o'qituvchi dars jarayonlarida ishtirok etmoqda. Yil oxirigacha ularning soni **60 nafarga** etkazilishi rejalashtirilgan.

Bugungi kunda xorijda ko'plab vatandohlarimiz ham faoliyat ko'rsatmoqda bo'lib, ularning tajribasidan ham universitetning ta'lim, ilm-fan, tashkiliy-boshqaruv va boshqa sohalarida foydalanish mumkin.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, Kengash a'zolaridan quyidagi takliflarni qo'llab quvvatlashlari so'raladi.

1. Moliyaviy mustaqillik imkoniyatidan foydalangan holda, BuxDU kafedralari Xalqaro hamkorlik bo'limi bilan kelishilgan holda, xorijlik mutaxassis yoki vatandosh bilan muzokaralar olib boradi. Xorijlik mutaxassis yoki vatandosh kamida faoliyat ko'rsatadigan yilda ularning asosiy ish joyi bo'lgan OTM **jahon akademik reytinglarida yuqori 1000 talikda bo'lishi** yoki bunday bo'lmagan hollarda mutaxassisning o'z sohasi bo'yicha haqiqatdan ham **yuqori malakali** bo'lishi talab etiladi.

2. Xorijlik mutaxassis va vatandoshlar ma'ruza va seminarlarni olib borish, til kurslarini tashkil qilish, ilmiy tadqiqotlarda hamkorlik qilish, universitet shtatidagi lavozimda faoliyat olib borish, shartnoma asosida universitetni strategik rivojlantirish maqsadida taklif etilishi mumkin.

3. Xorijlik mutaxassis va vatandoshlarga ish haqi **soatbay, ishbay yoki lavozim hissasi asosida** o'zaro kelishiladigan valyutada, O'zbekiston qonunchiligida belgilangan soliq va to'lovlar to'langanidan so'ng, to'g'ridan-to'g'ri naqd ko'rinishda yoki pul ko'chirish orqali mutaxassisning xorijda yoki O'zbekistonda ochilgan bank hisobvaraqlariga (plastik kartasiga) o'tkazib beriladi.

Ish haqi miqdori, shuningdek yaratiladigan boshqa sharoitlar (safari xarajatlari, yashash joyi xarajatlari va boshqalar) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-2909 qarorida belgilangan tartiblarga mos ravishda xorijlik mutaxassis va vatandosh bilan tuziladigan shartnomada aniq ko'rsatiladi. Bunda xorijlik mutaxassis va vatandoshning yashash mamlakati va malakasidan kelib chiqqan holda soatbay haq to'lashda **soatiga 5-25 AQSh dollaridan**, oylik maosh to'langanida **200-3000 AQSh dollaridan** ish haqi to'lanishi mumkin.

Jumladan, MDH davlatlaridan tashrif buyuradigan Xalqaro reytinglarda mavjud OTMlarda yoki tashkilotlarda faoliyat olib boradigan xorijiy professor-o'qituvchi va vatandoshlar uchun:

1 akademik soat (40 min.) dars uchun: Ilmiy daraja yoki unvonsiz o'qituvchiga 10 (o'n) AQSh dollarigacha, PhD, fan nomzodi darajasidagi o'qituvchiga 15 (o'n besh) AQSh dollarigacha, DSc darajasiga ega o'qituvchi uchun 20 (yigirma) AQSh dollarigacha miqdorida haq to'lanishi;

MDH davlatlaridan boshqa mamlakatlardan tashrif buyuradigan, Xalqaro reytinglarda mavjud OTMlarda yoki tashkilotlarda faoliyat olib boradigan professor-o'qituvchi va vatandoshlar uchun:

1 akademik soat (40 min.) dars uchun: Ilmiy daraja yoki unvonsiz o'qituvchiga 15 (o'n besh) AQSh dollarigacha, PhD darajasidagi o'qituvchiga 20 (yigirma) AQSh dollarigacha hamda DSc darajasiga ega o'qituvchi yoki yetuk mutaxassis uchun 25 (yigirma besh) AQSh dollarigacha miqdorida haq to'lanishi taklif qilinadi.

Yana bir masala xorijiy til kurslari nilan bog'liq. Albatta, xorijiy til kurslarini o'tuvchi xorijiy mutaxassislar o'sha til bo'yicha diplomli mutaxassis bo'lishi eng yaxshi variant. Lekin, shuning bilan birga, talab yuqori bo'lgan tillarni o'qitishda mavjud imkoniyatlardan kelib chiqqan holda, mutaxassisligi boshqa bo'lsada, xorijiy yil tashuvchisi bo'lganlarni til kurslariga o'qituvchi sifatida qabul qilish hamda yuqorida keltirilgan me'yorlar asosida yoki alohida kelishuvlar doirasida ish haqi to'lanishi maqsadga muvofiqdir.

RAIS: xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektori A.Jo'rayevning axborot bo'yicha kimda qanday savollar bor?

Ovozlar: hammasi tushunarli.

Kun tartibidagi masala yuzasidan **Kengash qaror qiladi:**

1. BuxDU xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektor A.Jo'rayevning ma'lumoti axborot uchun qabul qilinsin.

2. Xorijlik mutaxassis va vatandoshlarning ta'lim, ilm-fan, tashkiliy-boshqaruv jarayonlariga jalb etilishi universitetda ta'lim va boshqaruv jarayonlarini takomillashtirish nuqtai nazaridan maqsadga muvofiq ekanligi ta'kidlansin.

3. Universitetga taklif etiluvchi xorijlik mutaxassis va vatandoshlarning yuqori malakali bo'lishi shartligi ta'kidlab o'tilsin. Ularga to'lanadigan ish haqi soatbay, ishbay yoki lavozim hissasi asosida o'zaro kelishiladigan valyutada, O'zbekiston qonunchiligida belgilangan soliq va to'lovlar to'langanidan so'ng, to'g'ridan-to'g'ri naqd ko'rinishda yoki pul ko'chirish orqali mutaxassisning xorijda yoki O'zbekistonda ochilgan bank hisobraqamiga (plastik kartasiga) o'tkazib berilishiga ruxsat berilsin.

4. Xorijlik mutaxassis va vatandoshlar ma'ruza va seminarlarni olib borish, til kurslarini tashkil qilish, ilmiy tadqiqotlarda hamkorlik qilish, universitet shtatidagi lavozimda faoliyat olib borish maqsadida shartnoma asosida universitetni strategik rivojlantirish maqsadida taklif etilishiga ruxsat berilsin.

Ish haqi miqdori, shuningdek yaratiladigan boshqa sharoitlar (safar xarajatlari, yashash joyi xarajatlari va boshqalar) xorijlik mutaxassis bilan tuziladigan shartnomada aniq ko'rsatilishi, xorijlik mutaxassis va vatandoshning yashash mamlakati va malakasidan kelib chiqqan holda soatbay haq to'lashda MDH davlatlaridan tashrif buyuradigan Xalqaro reytinglarda mavjud OTMlarda yoki tashkilotlarda faoliyat olib boradigan xorijiy professor-o'qituvchi va vatandoshlar uchun 1 akademik soat (40 min.) dars uchun ilmiy daraja yoki unvonsiz o'qituvchiga 10 (o'n) AQSh dollarigacha, PhD, fan nomzodi darajasidagi o'qituvchiga 15 (o'n besh) AQSh dollarigacha, DSc darajasiga ega o'qituvchi uchun 20 (yigirma) AQSh dollarigacha miqdorida haq to'lanishi;

MDH davlatlaridan boshqa mamlakatlardan tashrif buyuradigan, Xalqaro reytinglarda mavjud OTMlarda yoki tashkilotlarda faoliyat olib boradigan professor-o'qituvchi va vatandoshlar uchun 1 akademik soat (40 min.) dars uchun: Ilmiy daraja yoki unvonsiz o'qituvchiga 15 (o'n besh) AQSh dollarigacha, PhD darajasidagi o'qituvchiga 20 (yigirma) AQSh dollarigacha hamda DSc darajasiga ega o'qituvchi yoki yetuk mutaxassis uchun 25 (yigirma besh) AQSh dollarigacha miqdorida haq to'lanishi taklif qilinadi.

Shuningek ish haqi oylik maosh shaklida to'langanida 200-3000 dollardan ish haqi to'lanishiga rozilik berilsin.

5. Talab yuqori bo'lgan tillarni o'qitishda mavjud imkoniyatlardan kelib chiqqan holda, mutaxassisligi boshqa bo'lsada, xorijiy yil tashuvchisi bo'lganlarni til kurslariga o'qituvchi sifatida qabul qilish hamda yuqorida keltirilgan me'yorlar asosida yoki alohida kelishuvlar doirasida ish haqi to'lanishi taklifi qo'llab-quvvatlansin.

6. Ushbu qaror ijrosi Moliya va iqtisod ishlari bo'yicha prorektor va Xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektor zimmasiga yuklansin.

VI. Moliya-iqtisod ishlar yo'nalishlari bo'yicha:

6.1. Talabalarining qishki ta'til davri hamda masofaviy ta'lim shakli davri uchun talabalar turar joylari to'lovlarini tartibga solish to'g'risida.

ESHITILDI: O'.U. Rashidov (Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektor) kengash a'zolariga Ijarachilarning shartnomalarini uzaytirish to'g'risida axborot berdi.

OO'MTV tomonidan talabalarining qishgi ta'tili 2021-yil 25-dekabrda 2022-yil 10-yanvargacha uzaytirilgan, OO'MTV ning 2022-yil 6-yanvardagi 2-sonli buyrug'i bilan OO'MT hamda PT muassasalarida talabalarining qishgi ta'tili 2022-yil 24-yanvargacha, so'ngra OO'MTV ning 2022-yil 24-yanvardagi 25-sonli buyrug'i bilan respublika OTM talabalarini onlayn ta'lim shakliga o'tkazilgan, 2022-yil 4-fevraldagi 42-sonli buyrug'i bilan respublika OTM talabalarini joriy yilning 7-fevraldan 24-fevralgacha oflayn ta'lim shakliga o'tkazish topshirilgan.

Universitet va talabalar o'rtasidagi tuzilgan shartnomaning 1.1-bandida universitet Kengashining 2021-yil 30-avgustdagi qarori bilan tasdiqlangan bir oylik ijara to'lovi 193 012 so'm miqdorda belgilanganligi ko'rsatib o'tilgan. Shartnomaning 1.2-bandi a-kichik bandida "O'quv yili davomida talabaning TTJda ma'lum vaqt turmasligi TTJ uchun to'lovlarni qaytarishga asos bo'lolmaydi", s-kichik bandida esa "Talabaning TTJga joylashgan kundan e'tiboran shartnomaning 1.1-bandida belgilangan miqdor chegirma qilingan holda oylik to'lov hisoblanadi" deyilgan. Yuqoridagilarni inobatga olib, universitet va TTJda istiqomad qiluvchi talabalariga bog'liq bo'lmagan, pandemiya davri bo'lganligi sababli TTJda istiqomad qiluvchi talabalardan 2022-yil 10-yanvardan 7-fevralgacha bo'lgan darvda ijara to'lovidan ozod etilishi yoki ortiqcha to'lovlar talabalar bilan qayta hisoblanishi masalasini kengash orqali tasdiqlab berishingizni so'rayman.

Ushbu masala bo'yicha kengash a'zolari o'z fikr-mulohazalarini bildirishdi. Muhokama so'ngida universitet rektori, kengash raisi O.Xamidov kengash a'zolaridan yuqoridagi taklif uchun ovoz berishlarini so'radi.

Rozilar - 65 nafar

Qarshilar - yo'q

Betaraflar - yo'q

Kun tartibidagi masala muhokama qilinib, **kengash qaror qiladi: loyiha**

1. Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektor O'.U. Rashidovning Ijarachilarning shartnomalarini uzaytirish to'g'risidagi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.
2. TTJda istiqomad qiluvchi talabalariga bog'liq bo'lmagan, pandemiya davri bo'lganligi sababli TTJda istiqomad qiluvchi talabalardan 2022-yil 10-yanvardan 7-fevralgacha bo'lgan darvda ijara to'lovidan ozod etilish va ortiqcha to'lovlar talabalar bilan qayta hisoblanib qaytarilsin.
3. Ushbu qaror ijro nazorati Moliya iqtisod ishlari bo'yicha prorektori O'.U.Rashidov zimmasiga yuklansin.

6.2. Buxoro davlat universitetida tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish uchun o'z hisobidan yengil konstruksiya asosida qurilgan binolarning tegishli yer maydonlarini ijaraga berish to'g'risida

ESHITILDI: O'.U. Rashidov (Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektor) Buxoro davlat universitetida tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish uchun o'z hisobidan yengil konstruksiya asosida qurilgan binolarning tegishli yer maydonlarini ijaraga berish to'g'risida axborot berdi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 8-apreldagi "Davlat mulkini ijaraga berish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorining 3 band 2 xat boshida Davlat ko'chmas mulkidan foydalanganlik uchun ijara to'loving eng kam stavkalari O'zbekiston Respublikasi Davlat raqobat qo'mitasi tomonidan taqdim etilgan hamda Moliya vazirligi va Iqtisodiyot vazirligi bilan kelishilgan ijaraning eng kam stavkalarini hisoblab chiqish asosida tegishli koeffitsiyentlar belgilangan holda har yili 31-dekabrgacha Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan tasdiqlanishi belgilangan.

Shu bilan birga yuqoridagi qarorning ilovasi bo'lgan "Davlat mulkini ijaraga berish tartibi to'g'risida NIZOM"ning 152 bandida Davlat mulki yuridik va jismoniy shaxslarga yagona elektron savdo maydonchasida onlayn-auksionlar yo'li bilan ham ijaraga berilishi mumkin ekanligi ko'rsatib o'tilgan.

Bugungi kunda universitet yer maydonlarida tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish uchun tadbirkorlik subyektlari tomonidan yengil konstruksiya asosida qurilgan binolar mavjud bo'lib, ushbu binolarning yer maydonlarini yagona elektron savdo maydonchasida onlayn-auksionlarsiz ijaraga berish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Shu sababli Buxoro davlat universitetida tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish uchun o'z hisobidan yengil konstruksiya asosida qurilgan binolarning tegishli yer maydonlarini Buxoro

viloyat hokimining 2022-yil 1-fevraldagi 43-2-0-Q/22-sonli “Viloyatda davlat mulki bo‘lgan bino va inshootlardan foydalanganlik uchun to‘lanadigan ijara haqining 2022-yil uchun eng kam miqdordagi stavkalarini tasdiqlash to‘g‘risida” gi qarorida har bir faoliyat uchun belgilangan stavkalarining ortirilgan barobarlari miqdorida ijara berishni taklif etaman.

Kun tartibidagi masala muhokama qilinib, **kengash qaror qiladi: loyiha**

1. Buxoro davlat universitetida tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanish uchun o‘z hisobidan yengil konstruksiya asosida qurilgan binolarning tegishli yer maydonlarini ijara berish masalasi bo‘yicha Moliya-iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor O‘.U. Rashidovning axboroti ma‘lumot uchun qabul qilinsin.
2. Buxoro davlat universitetida tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanish uchun o‘z hisobidan yengil konstruksiya asosida qurilgan binolarning tegishli yer maydonlari Buxoro viloyat hokimining 2022-yil 1-fevraldagi 43-2-0-Q/22-sonli “Viloyatda davlat mulki bo‘lgan bino va inshootlardan foydalanganlik uchun to‘lanadigan ijara haqining 2022-yil uchun eng kam miqdordagi stavkalarini tasdiqlash to‘g‘risida” gi qarorida har bir faoliyat uchun belgilangan stavkalarining (.....) barobarlari miqdorida ijara berilsin.
3. Ushbu qaror ijro nazorati Moliya iqtisod ishlari bo‘yicha prorektori O‘.U.Rashidov zimmasiga yuklansin.

VII. TSNOB bo‘yicha:

7. Buxoro davlat universitetining 2021-yildagi faoliyati bo‘yicha reytingini baholashga oid ma‘lumotlar haqida

ESHITILDI: M.Y.Ergashov (TSNOB boshlig‘i) Universitetning 2021-yil faoliyati bo‘yicha reyting baholashga oid tahliliy ma‘lumotlar (fakultetlar va kafedralar kesimida) haqida axborot berdi.

Reytingni aniqlashga oid ma‘lumotlar bazasini shakllantirish Davlat inspeksiyasi tomonidan hisobot yilidan keyingi yilning birinchi choragida amalga oshiriladi. Davlat inspeksiyasi tomonidan ma‘lumotlar bazasini shakllantirish maqsadida tegishli namunadagi jadvallar ishlab chiqildi va reyting aniqlanayotgan yilning 20-dekabriga qadar oliy ta‘lim muassasalariga yetkazildi. OTMLar tomonidan reytingni aniqlashga oid ma‘lumotlar asoslovchi hujjatlari bilan birgalikda 1-fevralga qadar Davlat inspeksiyasiga taqdim etildi.

Shu asosda universitet (fakultet va kafedralar) ning 2021-yil faoliyati reyting ko‘rsatkichlari aniqlandi. Tegishli ma‘lumotlar e‘tiborlaringizga havola etiladi. Ma‘lumotlar 38 ta kafedra hisobidan tahlil qilingan. 2021-yilda universitetda faoliyat ko‘rsatgan professor-o‘qituvchilar soni - 904 nafar (BuxDUPI o‘qituvchilari bilan birgalikda).

Dunyoning nufuzli 1000 taligiga kiruvchi OTMLarning PhD yoki DSs ilmiy darajasini olgan PO‘lar soni-6 nafar. Dunyoning nufuzli 1000 taligiga kiruvchi OTMLarida o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazgan PO‘lar soni o‘tgan yilga nisbatan ancha oshdi. 2020-yilda 9 nafar, 2021-yilda 31 nafar professor o‘qituvchilarimiz Rossiya, Qozog‘istonning nufuzli OTMLarida ma‘ruzalar qilib keldilar.

Universitetda 2021-yilda fan doktori (DSs) ilmiy darajasiga yoki professor ilmiy unvoniga ega bo‘lganlar 50 nafarga (2020-yilda 40 nafar), fan nomzodi (PhD) ilmiy darajasiga yoki dotsent ilmiy unvoniga ega bo‘lgan professor-o‘qituvchilar 240 nafarga (2020-yilda 195 nafar) yetdi. Shu hisobdan ilmiy salohiyat 32,1 % bo‘ldi.

Ma‘lumotlarni tahlil qiladigan bo‘lsak, 2019-yilda dissertatsiya himoyalari yoki professor, dotsent ilmiy unvonlarini olganlar soni 35 ta edi. 2020-yilda bu ko‘rsatkich 46 ta, 2021-yilda universitet bo‘yicha himoyalar soni 79 ta (15 ta DSs, 64 ta PhD) himoya bo‘lgan. Jami himoya bo‘lgan yoki professor, dotsent ilmiy unvonlarini olganlar 79 nafarni tashkil etadi.

Xalqaro ko‘rsatkichlar ma‘lumotlariga ko‘ra professor-o‘qituvchilarning ilmiy maqolalariga iqtiboslar 2019-yilda 782 ta, 2020-yilda 9181 deb qayd etilgan bo‘lsa, 2021-yilda ularning soni

29467 ta bo'ldi. Shu o'rinda quyidagi professor-o'qituvchilarning bu sohadagi faoliyatlarini alohida ta'kidlash lozim.

google.scholar.com ilmiy bazasida iqtiboslik ko'rsatkichi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga erishgan professor-o'qituvchilar



№	F.I.SH.	Lavozimi	Iqtiboslik ko'rsatkichi	h-index	Havolasi
1	Rasulov To'liq Husenovich	Matematik analiz kafedrası professori bajaruvchi	2824	33	https://scholar.google.com/citations?hl=ru&user=uwW39PgAAAAJ
2	Xolikov Komiljon Buronovich	Musiqa ta'limi o'qituvchisi	2369	30	https://scholar.google.com/citations?hl=ru&user=n8xoT2gAAAAJ
3	Rasulova Zilola Durdimurotovna	Texnologik ta'lim kafedrası dotsent (PhD)	1589	26	https://scholar.google.com/citations?hl=ru&user=yihgFnkAAAAJ
4	Madrimov Baxram Xudoynozorovich	Musiqa ta'limi kafedrası professori	1416	23	https://scholar.google.com/citations?hl=ru&user=P_4P1gIAAAAAJ
5	Ma'murov Bahodir Baxshillayevich	Fakultetlararo jismoniy madaniyat kafedrası professori	1409	23	https://scholar.google.com/citations?hl=ru&user=_aXmRXUAAAAJ
6	Xamidov Obidjon Xafizovich	BuxDU rektori	1308	25	https://scholar.google.com/citations?hl=ru&user=00wnEJ4AAAAJ
7	Xurramov Ortikjon Kayumovich	Servis sohasi iqtisodiyoti kafedrası dotsent	1296	24	https://scholar.google.com/citations?hl=ru&user=m-q5p-8AAAAJ
8	Akramova Gulbahor Renatovna	Boshlang'ich ta'lim nazariyasi kafedrası dotsent	1163	16	https://scholar.google.com/citations?hl=ru&user=LPmnEF4AAAAJ
9	Rasulov Xaydar Raupovich	Matematik analiz kafedrası dotsent	1113	18	https://scholar.google.com/citations?hl=ru&user=uJeWJakAAAAJ
10	Hazratov Fazliddin Hikmatovich	Amaliy matematika va dasturlash texnologiyalari kafedrası katta o'qituvchi	1096	24	https://scholar.google.com/citations?hl=ru&user=MyjtBKYAAAAJ

Xalqaro jurnallardagi ilmiy maqolalar soni 2020-yilda 812,4 ta bo'lgan bo'lsa, hisobot yilida 1118,8 (jumladan, Scopus bazasiga kiritilgan ilmiy jurnallarda 64 ta, Web of Science bazasiga kiritilgan ilmiy jurnallarda 46 ta)taga yetdi.

Respublika ilmiy jurnallaridagi (OAK ro'yxatidagi) ilmiy maqolalar 2020-yilda 697 ta bo'lgan bo'lsa, hisobot davrida 851,5 ta bo'ldi. Hisobot davrida 2020-yilga nisbatan olganda monografiyalar soni 52 tadan 133 taga, axborot – kommunikatsiya texnologiyalariga oid dasturlar va elektron bazalari uchun olingan guvohnomalar, mualliflik huquqi bilan himoya qilinadigan turli materiallar soni 58 tadan 105 taga, darsliklar soni 21 tadan 66 taga, o'quv qo'llanmalar soni 69 tadan 174 taga oshdi.

Xorijiy o'qituvchilar soni - 44 nafar bo'ldi. Xalqaro olimpiadalarda va nufuzli tanlovlarda sovrinli o'rinlarni qo'lga kiritgan va mukofot (diplom)larga sazovor bo'lgan hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat stipendiyasi sovrindorlari bo'lgan talabalar soni 43 nafarga, Respublika olimpiadalarda va nufuzli tanlovlarda sovrinli o'rinlarni qo'lga kiritgan va mukofot (diplom)larga sazovor bo'lgan talabalar soni bo'yicha 2021-yilda o'sishga erishilib 125 ta sovrinli o'rinlar egallangan. Jadval ma'lumotlaridan reytingning boshqa ko'rsatkichlari bo'yicha ham ijobiy o'zgarishlar borligi kuzatiladi.

БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИНИНГ 2021 ЙИЛ ФАОЛИЯТИ БЎЙИЧА РЕЙТИНГ КЎРСАТКИЧЛАРИ (2020 ЙИЛГА НИСБАТТАН)



2021-yil reyting ko'rsatkichlarining fakultetlar va kafedralar bo'yicha tahlili

Jadvallarda 2021-yil reyting ko'rsatkichlari fakultetlar va kafedralar kesimida tahlil qilingan. Fakultetlar kesimida o'rganilganda xalqaro jurnallarda ilmiy maqolalar maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti 212,3 ta (jumladan, boshlang'ich ta'lim metodikasi 104 ta, maktabgacha ta'lim kafedrasida 74,3 ta, boshlang'ich ta'lim nazariyasi 34ta), xorijiy tillar fakulteti 207,3 ta (jumladan, ingliz tilshunosligi 56 ta, nemis va fransuz tillari 43 ta, tarjimashunoslik va

lingvodidaktika kafedrasida 31,5 ta, ingliz adabiyotshunosligi 23,3 ta, tabiiy yo‘nalishlarda chet tili (22,3 ta), iqtisodiyot va turizm fakultetida 132,5 ta (jumladan, turizm va mehmonxona xo‘jaligi kafedrasida 71 ta, iqtisodiyot kafedrasida 48 ta, Servis sohasi iqtisodiyoti kafedrasida 13,5 ta), San‘atshunoslik fakulteti 112,3 ta (jumladan, musiqa ta‘limi 74,3 ta, tasviriy san‘at va muhandislik grafikasi kafedrasida 38 ta), fizika-matematika fakulteti 99,7 ta (jumladan, fizika kafedrasida 46,2 ta, matematik analiz kafedrasida 37 ta, Pedagogika fakulteti 91,2 ta (psixologiya kafedrasida 61 ta, pedagogika 26,2 ta), filologiya fakulteti 81,5 (jumladan, o‘zbek tili va adabiyoti kafedrasida 35,7 ta, o‘zbek tilshunosligi 24,3 ta), rus tili va adabiyoti 21, ta, jismoniy madaniyat fakulteti 72 ta (jumladan, fakultetlararo jismoniy madaniyat va sport kafedrasida 55,5 ta) maqola chop etilgan. Jahon tarixi (2 ta), milliy g‘oya, ma‘naviyat asoslari va huquq ta‘limi (2ta), islom tarixi va manbashunosligi, falsafa (3ta), texnologik ta‘lim (4ta) kafedralarida xalqaro jurnallardagi maqolalar soni kam.

Barcha kafedra professor-o‘qituvchilari tomonidan **Respublika ilmiy jurnallaridagi (OAK ro‘yxatidagi) ilmiy maqolalar** chop etilgan. Matematik analiz kafedrasida tomonidan (95 ta), boshlang‘ich ta‘lim metodikasi (91 ta), pedagogika (47ta), ingliz tilshunosligi (43 ta), maktabgacha ta‘lim (39 ta), psixologiya (37 ta), axborot texnologiyalari kafedrasida 34 ta, amaliy matematika va dasturlash texnologiyalari (31 ta), tabiiy yo‘nalishlarda chet tili (29 ta), fakultetlararo jismoniy madaniyat va sport kafedrasida (28 ta), o‘zbek tili va adabiyoti kafedrasida (25 ta), Buxoro tarixi 23 ta, milliy g‘oya, ma‘naviyat asoslari va huquq ta‘limi (21ta), rus tili va adabiyoti (19 ta), Jahon tarixi (17 ta) ilmiy maqolalar chop etilgan.

Xalqaro ko‘rsatkichlarga ko‘ra professor-o‘qituvchilarning ilmiy maqolalariga (“Scopus”, “Web of Science”, “Google Scholar” yoki boshqa xalqaro e‘tirof etilgan bazalarda mavjud bo‘lgan jurnallar bo‘yicha) **ixtiboslikning eng katta ko‘rsatkichi** fizika-matematika fakulteti (6419,16ta, shundan matematik analiz kafedrasida 5800 ta), San‘atshunoslik (5059,58 ta, shundan musiqa talimi kafedrasida 3749ta), maktabgacha va boshlang‘ich ta‘lim (4452,16, shundan boshlang‘ich ta‘lim nazariyasi kafedrasida 2659 ta, maktabgacha ta‘lim kafedrasida 1056 ta), iqtisodiyot va turizm (3865,22 ta, shundan iqtisodiyot kafedrasida 1928 ta, servis sohasi iqtisodiyoti kafedrasida 1397 ta) fakultetlariga to‘g‘ri keladi. Bu bandning ijrosi bo‘yicha texnologik ta‘lim kafedrasida (1534ta), tasviriy san‘at va muhandislik grafikasi (1310ta), fakultetlararo jismoniy madaniyat va sport (1276 ta), amaliy matematika va dasturlash texnologiyalari (1105 ta) kafedralari namunali ishlar bajarilgan.

Hisobot davrida universitet professor-o‘qituvchilari tomonidan nashr etilgan **monografiyalar** soni 133 ta bo‘lib, bu ko‘rsatkich o‘tgan yillarga nisbatan ancha yuqori (2017-yilda 17 ta, 2018-yilda 15 ta, 2019-yilda 30 ta, 2020-yilda 52 tani tashkil etadi). Kafedralar bo‘yicha tahlil qilinganda boshlang‘ich ta‘lim metodikasi 13 ta, maktabgacha ta‘lim 11 ta, psixologiya 9 ta, turizm va mehmonxona xo‘jaligi 8 ta, tarjimashunoslik va lingvodidaktika 8 ta, pedagogika 7 ta, nemis va fransuz tillari 6 ta, umumiy va noorganik kimyo 6 ta, axborot texnologiyalari 5 ta, o‘zbek tili va adabiyoti 5 ta, musiqiy ta‘lim 5ta, pedagogika 5ta, differensial tenglamalar 5 ta monografiyalar nashr qilingan.

Texnologik ta‘lim, islom tarixi va manbashunosligi, falsafa, milliy g‘oya, manaviyat asoslari va huquq ta‘limi, jahon tarixi, ingliz adabiyotshunosligi, rus tili va adabiyoti chaqiriqqacha harbiy ta‘lim kafedralarida monografiyalar nashr etilmagan.

2020-yilda universitet bo‘yicha 21 ta **darsliklar** yaratilgan bo‘lsa, hisobot davri mobaynida 66 ta darslikka vazirlikning grifi olingan. Ayniqsa, iqtisodiyot va turizm fakulteti (11ta), Pedagogika fakulteti (11 ta), maktabgacha va boshlang‘ich ta‘lim fakulteti (10ta), Jismoniy madaniyat fakulteti (9 ta), filologiya fakulteti (6ta) jamoasi bu sohada ancha faol. Psixologiya kafedrasida 8ta, turizm va mehmonxona xo‘jaligi 6 ta, boshlang‘ich ta‘lim nazariyasi 6 ta, iqtisodiyot 5 ta, musiqa ta‘limi 5 ta, fakultetlararo jismoniy madaniyat va sport 5 ta, jismoniy madaniyat nazariyasi va uslubiyoti kafedrasida 4 ta, boshlang‘ich ta‘lim metodikasi 4 ta, pedagogika 3ta, o‘zbek tili va adabiyoti 2 ta, rus tili va adabiyoti 2 ta darslik yaratilgan. Organik va fizkolloid kimyo, ekologiya va geografiya, fizika, Buxoro tarixi, tasviriy san‘at va muxandislik grafikasi, o‘zbek tilshunosligi, ingliz adabiyotshunosligi, ingliz tilshunosligi, nemis va fransuz

tillari, Ingliz adabiyoti va stilistika, gumanitar yoʻnalishlarda chet tili, oʻzbek tilshunosligi 1 tadan darslik yaratilgan. **16 ta kafedralarda darslik yaratilmagan.**

2020 yilda universitet boʻyicha **69 ta oʻquv qoʻllanmalar** yaratilgan boʻlsa, hisobot davrida universitet boʻyicha 174 ta oʻquv qoʻllanmalar chop etilgan. Bu band boʻyicha deyarli barcha kafedralarda muayyan ishlar bajarilgan. Sanʼatshunoslik fakulteti 26 ta (musiqqa taʼlimi kafedrasida 16 ta, tasviriy sanʼat va muxandislik grafikasi 10 ta), Maktabgacha va boshlangʻich taʼlim fakultetida 25 ta (boshlangʻich taʼlim metodikasi kafedrasida 10 ta, boshlangʻich taʼlim nazariyasi 9 ta, maktabgacha taʼlim 6 ta), Jismoniy madaniyat fakultetida 20 ta (jismoniy madaniyat nazariyasi va uslubiyoti kafedrasida 12 ta, fakultetlararo jismoniy madaniyat va sport 8 ta, Iqtisodiyot va turizm fakultetida 12 ta (iqtisodiyot kafedrasida 10 ta, qolgan ikki kafedra 1 tadan) oʻquv qoʻllanma nashr etilgan.

3 ta kafedrada (Tuproqshunoslik, ingliz adabiyotshunosligi, Stilistika kafedralarida) 2020-yil rejasiga kiritilgan boʻlsa-da oʻquv qoʻllanmalar yaratilmagan.

Umumiy holatda olganda tahlillar tuproqshunoslik, milliy gʻoya, maʼnaviyat asoslari va huquq taʼlimi, ekologiya va geografiya, nemis va fransuz tillari, chaqiriqqacha harbiy taʼlim, tabiiy yoʻnalishlarda chet tili, gumanitar yoʻnalishlarda chet tili kafedralarida reyting koʻrsatkichlari (professor-oʻqituvchilarning faoliyat samaradorligi) pastligini koʻrsatdi.

Shuni inobatga olib, fakultetlarda reyting koʻrsatkichlarining batafsil tahlilini amalga oshirish, yutuq va kamchiliklar chuqur oʻrganilib, tegishli chora-tadbirlar ishlab chiqilsa maqsadga muvofiq boʻlar edi. Ayniqsa, oxirgi yillarda patentlar soni 2 tadan oshmayapti. Akademik almashinuv dasturlarida talabalarining ishtirokini oshirish zarur. 2019-yilda akademik almashinuv dasturlarida 77 nafar talaba ishtirok etgan edi. Undan keyin oʻsish dinamikasi pasaydi. Sport klubi va seksiyalariga aʼzo boʻlib, sport bilan muntazam shugʻullanuvchi hamda sport tasnifiga boʻlgan talabalar sonini koʻpaytirish lozim. Bu koʻrsatkich har yili faqat jismoniy madaniyat fakulteti hisobidan shakllantiriladi. Boshqa fakultetlarning talabalarini ham sport klubiga aʼzo qilib koʻrsatkichlarni yaxshilash mumkin.

Universitet ilmiy salohiyatini oshirish maqsadida himoyalar sonini koʻpaytirish, xorijiy tilda oʻqitiladigan mutaxassislik fanlari sonini oshirish, xorijiy ilmiy- tadqiqot markazlari grantlari va xorijiy ilmiy fondlari mablagʻlarini koʻpaytirish, bitiruvchilarning (jumladan, magistratura mutaxassisligi bitiruvchilarining) toʻliq ishga joylashish chora-tadbirlarini belgilash kerak.

RAIS: Buxoro davlat universitetining 2021-yildagi faoliyati boʻyicha reytingini baholashga oid maʼlumotlar toʻgʻrisidagi axborot boʻyicha kimda qanday savollar bor?

Ovozlar: hammasi tushunarli.

Kun tartibidagi masala yuzasidan **Kengash qaror qiladi:**

1. “Kafedralarni 2021-yil faoliyati natijalari tahlili toʻgʻrisida”gi taʼlim sifatini nazorat qilish boʻlimi boshligʻi M.Y.Ergashovning axboroti maʼlumot uchun qabul qilinsin.

2. Universitetning 2021-yil faoliyati boʻyicha natijalari qoniqarli ekanligi qayd etilsin.

3. Musiqqa taʼlimi, turizm va mehmonxona xoʻjaligi, boshlangʻich taʼlim nazariyasi, servis sohasi iqtisodiyoti, matematik analiz, iqtisodiyot, psixologiya, ingliz adabiyotshunosligi, oʻzbek tili va adabiyoti, ingliz tilshunosligi, boshlagʻich taʼlim metodikasi, amaliy matematika va dasturlash texnologiyalari kafedralari professor-oʻqituvchilarining faoliyat samaradorligi yuqori ekanligi eʼtirof etilsin.

4. Tuproqshunoslik, milliy gʻoya, maʼnaviyat asoslari va huquq taʼlimi, ekologiya va geografiya, nemis va fransuz tillari, chaqiriqqacha harbiy taʼlim, tabiiy yoʻnalishlarda chet tili, gumanitar yoʻnalishlarda chet tili kafedralarida reyting koʻrsatkichlari pastligi taʼkidlansin.

5. 16 ta kafedrada darslik, 3 ta kafedrada oʻquv qoʻllanma, 7 ta kafedrada monografiya yaratilmaganligi, ayrim kafedralarda iqtiboslikning kamligi, universitet boʻyicha patentlar sonining

kamligi, ayrim kafedralarda yil davomida birorta himoya bo‘lmaganligi qayd etilsin va kelgusida bu sohadagi ishlarga alohida e’tibor qaratilsin.

6. Fakultet dekanlari va kafedra mudirlariga:

6.1. Fakultetlarda kafedralarning yillik ko‘rsatkichlarining batafsil tahlilini amalga oshirish va tegishli chora- tadbirlar belgilash;

6.2. Ixtiro, foydali model, sanoat namunalari va seleksiya yutuqlari uchun patentlar sonini oshirish (ayniqsa, fizika, kimyo kafedralari, biologiya, tuproqshunoslik, ekologiya va geografiya kafedralari, texnologik ta’lim, tasviriy san’at va muhandislik grafikasi, iqtisodiyot va turizm fakulteti kafedralari, axborot texnologiyalari kafedralari, matematika kafedralari);

6.3. Reyting ko‘rsatkichlarni yaxshilash maqsadida **“Buxoro davlat universitetining reyting ko‘rsatkichlari bo‘yicha 2022-yilda kafedralar tomonidan amalga oshiriladigan rejasi”**da belgilangan chora-tadbirlarning ijrosini to‘liq ta’minlash vazifasi yuklatilsin.

7. Kafedralardagi har bir pedagog-xodim tomonidan o‘quv yili davomida amalga oshirilgan o‘quv-metodik, tarbiyaviy, ilmiy faoliyatlari to‘g‘risidagi ishlarni asoslovchi hujjatlarni universitetning portfolio (<http://uniwork.buxdu.uz/>) tizimiga muntazam ravishda joylashtirib borishi ta’minlansin (Mas’ullar: kafedra mudirlari)

